

O. Jakbarov, U.G'oirov

# WEB DASTURLASH




004.42  
7-22

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
Namangan muhandislik-qurilish instituti

O. Jakbarov, U. G'oyipov

# WEB DASTURLASH



«Iste'dod ziyo press» nashriyoti  
Namangan  
2023

UO'K: 821-512-133-9

KBK: 84(O'zb)7

M-54

Jakbarov O., G'oyipov U. Web dasturlash: O'quv qo'llanma – N.:  
“Iste'dod ziyo press” nashriyoti, 2023 – 200 b.

**Taqrizchilar:** NamMTI, Texnologik jarayonlarni avtomatlash-  
tirish va boshqarish va informasion texnologiyalar kafedrası dosenti  
**K.D.Ismanova**

Namangan davlat universiteti “Amaliy matematika” kafedrası-  
ning dosenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent **N.Ataxanov**

Namangan muhandislik-qurilish instituti “Oliy matematika”  
kafedrası professori, fizika-matematika fanlari doktori **V.Xojiboev**

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim tizimining 5111000-Kasb ta'limi  
(5330200-Informatika va axborot texnologiyalari) bakalavr ta'lim yo'nalishi  
talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, talabalarga Internet tarmog'i uchun Web  
ilovalarni yaratish bo'yicha dasturlash tillari, amaliy ko'nikmalarga ega  
bo'lishlari uchun har bir bo'limlar va mavzular kesimida misollar bilan  
tushuntirish keltirib o'tiladi. Shuningdek, o'quv qo'llanmada HTML gipermatn  
belgilash tili, CSS hamda JavaScript Web ilovalarni yaratish tillari bo'yicha  
asosiy tushunchalar amaliy masalalar bilan bog'lab mustaqil o'rganishga  
yo'naltiriladi. SHuningdek, ushbu o'quv qo'llanma orqali talabalarni mantiqiy  
fikr yuritish qobiliyatini oshirish, ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga  
o'rgatish, va yangi kompyuter texnologiyalari yordamida internet tarmog'i uchun  
ilovalar ishlab chiqishni o'rgatishga mo'ljallangandir. Shuningdek, o'quv  
qo'llanmadan mazkur fanni o'rganmoqchi bo'lgan barcha bilim oluvchilar uchun  
keng foydalanishlari tavsiya etiladi.

ISBN 978-9910-9453-8-0

© Jakbarov O., Goyipov U.  
© «Iste'dod ziyo press» nashriyoti, 2023.

## Kirish

Bugungi kunda Internetning ommaviyligi haqida gapirish o'rinsiz. Internet hayotimizning bir bo'lagiga aylandi, biz uning xizmatlaridan har kuni foydalanishga odatlandik. Hozirda ixtiyoriy inson webtexnologiyalarning inson hayotining ta'lim, kommersiya, siyosat, ko'ngil ochar, ... bo'laklariga kirib borganligini tasavvur eta oladi va uning guvohi va foydalanuvchisiga aylanmoqda.

Xususan, Axborot t xnologiyalari va kommunikasiyalari sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, el ktron davlat xizmatlari va t l kommunikasiya xizmatlari sp ktrini k ngaytirish, t l kommunikasiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida, O'zb kiston R spublikasi Pr zid nti SH.Mirziyo v tomonidan 2018 yil 19 f vral PF-5349-sonli "Axborot t xnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ham bugungi kundagi AKT sohasida qator kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha alohida topshiriqlar b rib o'tiladi.

Dastlabki web-sahifalar juda sodda tuzilishga ega bo'lib, ular matnni formatlash va gip rko'rsatkichlardan tarkib topgan edi. Web t xnologiyalar rivojlanishi natijasida Web sahifalar tarkibida Plug-in dasturlar joylashtirila boshlandi, natijada Web sahifalarga int r faol xususiyati b rildi. Web t xnologiyalarning rivojlanishining oxirgi natijalaridan biri bu skript tillaridir (Script Languages).Ularni ishlatishdan maqsad Web s rv rining ishini yengillashtirish, xar-xil ishlar uchun Web s rv rini b zovta qilmasdan, bunday masalalarni foydalanuvchi kompyut rining o'zida yaratishdir. Web t xnologiyasining oxirgi erishgan yutuqlaridan biri dinamik Web sahifalardir. Dinamik Web sahifalar CGI dasturlar bilan b vosita bog'liq bo'lib, CGI dasturlar s rv rda joylashgan va s rv r lmkoniyatlarini ishlatuvchi dasturlardir.

Mazkur qo'llanma web-hujjatlarni yaratish, ularni Internetda chop etish, web-hujjatni ko'rkamlashtirish, qiziqarli va o'ziga tortuvchi qilib yaratish, vaqti kelsa ma'lumotlarni yangilash kabi vazifalarni o'rgatishga mo'ljallangan.

Shu bilan birga, axborot t xnologiyalari va kommunikasiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga xissa qo'shish maqsadida ushbu sohaning mutaxassislarini yetishtirishda manba sifatida ushbu o'quv qo'llanma ishlab chiqildi.

## 1-BOB. "WEB DASTURLASH" FANIGA KIRISH

1.1-§. *Web dizaynning asosiy tushunchalari. Web texnologiya: HTML; Web brauzerlar; Web-sahifa, Web-sayt. Web-server; razmetkall va senariyli dasturlash tillari; "klient-server" texnologiyasi. Server strukturasi. Web xosting.*



### O'quv modullari

*web-sahifa, web-sayt, web-server, HTML, XML, XHTML, WML, klient-server texnologiyasi.*

Web sahifa Internet tarmoqlarida joylashgan fayllar to'plami bo'lib, ularni soni soat sayin ko'payib bormoqda. Bu fayllarda ma'lumotlarni turli xillarini: matn, grafik, tasvir, video, audio ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bugungi kunda Web Internet resurslari ichida eng ommaviysi hisoblanadi. Chunki, avvaldan tayyorlangan Web sahifa orqali tashqi gishli ma'lumotlarni to'ldirish foydalanuvchining qanchadan-qancha vaqtini tejash imkonini beradi.

**Web-texnologiya klassifikatsiyasi.** Web-texnologiyani (Internet-texnologiya) o'rganishni Web-dizaynning quyidagi uchta tushunchasini o'rganishdan boshlaymiz:

1. Web-sahifa;
2. Web-sayt;
3. Web-server.



**Texnologiya** grek tilidan (techne) tarjima qilganda san'at, maxorat, bilish ma'nolarini anglatadi, bular esao'z navbatida jarayonlardir. Jarayonlar - bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum xarakterli majmuasidir.



**Web-sahifa** – o'zining unikal adresiga ega bo'lgan va maxsus ko'rish dasturi yordamida (brauzer) ko'riluvchi hujjatdir. Unga matn, grafika, ovoz, video yoki animatsiya ma'lumotlar birlashmasi - multimedia hujjatlar, boshqa hujjatlarga gipermurojaatlar kirishi mumkin.



**Web-sayt** – bir qancha web-sahifalarning mantiqiy birlashmasi.



**Web-server** – tarmoqqa ulangan kompyuter yoki undagi dastur hisoblanib, umumiy resurslarni klientga taqdim etish yoki ularni boshqarish vazifalarini bajaradi. Internet tarmog'ini foydalanuvchilarga tarmoq resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatini beradigan web-serverlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bunday serverlarda Internetda taqdim etilgan axborotning katta qismi jamlangan.

Web-serverlar ma'lumotlar bazalari va multimedia ma'lumotlarni bir biriga moslashtiradi. Webserverda Web-sahifa va Web-saytlar saqlanadi. Web-



serverda mijoz kompyuteri tizimini tashkil qilishning umumiy tamoyillari nuqtai nazaridan mijozserver texnologiyalari ishlatiladi.

Hozirgi kunda oddiy web-serverni yaratish texnologiyasini ancha oddiy vazifa deb hisoblasa bo'ladi. Asosiy qiyinchilik server sahifasini badiiy bezashdan

### **Razm tkali va s nariyli dasturlash tillari**

Maxsus til mavjud bo'lib, bu til yordamida matnlar, grafik ma'lumotlar Web-sahifa hujjatga joylashtiriladi va bu hujjatni barcha kompyut rda ko'rish imkoniyati mavjuddir. Bunday maxsus tillar razm tkali tillar d b ataladi. Ularning asosiy vazifasi – Web-sahifaga“ma'lumotlarni joylashtirish” va ular orasidagi aloqani (gip rsaloqalar) ta'minlashdan iborat. Razmetkali tillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

### **HTML (HyperText Markup Language)**

Dastlab World Wide Web tizimi matnli ma'lumotlarni va HTML hujjatlarni ko'rishga mo'ljallangan, matnni taxrirlovchi tilga o'xshash tizim bo'lgan. Ayni damda HTML tili WWW daga eng ommabop tillardan biri hisoblanadi. HTML tilida yozilgan ma'lumotlar o'z ichiga matn fayllar, grafik ma'lumotlar va boshqalarni oladi. Hujjatlar orasidagi aloqani ta'minlash va ma'lumotlarni formatlash vositalari teg (tag) d b ataluvchi vosita orqali amalga oshiriladi. Web-sahifaning matn va teglari aralash ravishda HTML-hujjat d b ataluvchi faylining ichiga joylashtiriladi. Qanday tegni qo'llaganingizga qarab brauz yer oynasida ma'lumotlar turlicha ko'rinadi. HTML hujjatga ma'lumotlarni joylashtirish va tahrirlash uchun yuzlab teglar mavjud. Masalan, <p> va </p> teglari abzatsni tashkil etadi, <i> va </i> juft teglari esa, matnni yozma (kursiv) holda ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Shu bilan birga gip rmatnli ssilkalar teglari ham mavjud. Ushbu el m ntlar foydalanuvchiga gip rmatn ustiga sichqoncha kursori bosilganda boshqa hujjatga bog'lanish imkonini b radi. Butunjaxon o'rgimchak to'ringning asosiy va HTML ning tarkibiy qismini gip rmatnlar va gip rmujoaatlar tashkil etadi. Maxsus komandalar yordamida matnning ma'lum qismi shunday ajratiladiki, natijada o'sha matn ustiga sichqon tugmasi bosilsa boshqa matn yoki saxifa ochiladi. Bundan tashqari multim diya vositalarining ishlab k tishi yoki bo'lmasa, ma'lumotni diskda saqlash taklifi ham b rilishi mumkin.

Quyida biz HTML tilida tuzilgan dastur kodi bilan tanishib chiqamiz:



#### **1.1.1-misol. Web sahlfaga fon berish**

```
<HTML>
```

```
<HEAD>
```

```
<TITLE> Sahifa fonini berish misoli </TITLE></HEAD>
```


```
<BODY bgcolor = "yellow" text = "black" link = "red" vlink = "purple" alink = "green">
```

WEB dasturlash faniga kirish

```
</BODY>
```

```
</HTML>
```

Bu dasturni ishga tushirish natijasida quyidagi oyna ochiladi:



1.1.1-rasm

Gip rmatn yoki gip rmurojaat biror bir tasvirga ham qo'yilishi mumkinki uning ustiga bosilganda ham yuqorida aytilgan holatlar ro'y b rishi mumkin. Har bir w b-saxifa o'zida bir n chta gip rmatn yoki gip rmurojaatlarnimujassam etishi mumkin. Gip rmurojaatlar w b-saytlar bo'ylab xarakatning asosi xisoblanadi. Murojaatni tanlaganda foydalanuvchi brauz r oynasiga yuklanuvchi yoki yordamchiprogrammani ishga tushuruvchi URL bilan bog'langan adr sga «tushib» qoladi. Ba'zan gip rmurojaat natijasi e-mail yoki FTP s rv rga yo'llanma b ruvchi yangi w b-saxifani ochilishiga olib k ladi.Foydalanuvchi murojaatni tanlab olishi uchun w b-dizayn r uni yaratishi k rak. Gip rmurojaat yaratish uchun <a> (anchor, yakor) el m ntidan foydalaniladi. U o'zida yo'llanma b ruvchi URL adr sni ko'rsatuvchi href atributi bilan to'ldiriladi. Shuning uchun gip rmurojaatni yaratish uchun URL adr sni aniqlab olish k rak. Gip rmurojaat yaratish uchun (anchor, yakor) el m ntidan foydalaniladi. U o'zida yo'llanma b ruvchi URL adr sni ko'rsatuvchi href atributi bilan to'ldiriladi. Shuning uchun gip rmurojaatni yaratish uchun URL adr sni aniqlab olish k rak. Gip rmurojaatni yaratishda agar Int rn tdagi xizmat yoki adr sdan foydalanmoqchi bo'lsak albatta uning to'liq adr sini ko'rsatish shart. Agar o'zimizda bor bo'lgan w b-saxifalardan gip rmurojaatlar yaratmoqchi bo'lsak ba'zi bir ishni osonlashtiruvchi xolatlar mavjud:

### **XML (eXtensible Markup Language).**

XML tili ham HTML tiliga o'xshash til xisoblanadi. HTML dan farqli tomoni shundaki, XML da dasturchi o'zining shaxsiy teglarini yaratadi va ular orasiga ma'lumotlar joylashtiradi. XML-teglar harflar katta kichikligini farqlaydi. HTML teglari hujjatni ekranda ko'rinishini ifodalaydi. XML teglari hujjatdagi ma'lumotlarni tavsiflash uchun ishlatiladi. Undan tashqari XML yordamida yangi teglarni yaratish mumkin. XMLda ma'lumotlar tuzilmaviy holda saqlanadi. XML

asosan ma'lumotlar almashinuvida ko'p ishlatiladi, chunki XML platformadan mustaqil bo'lib, HTTP orqali ishlashi juda qulay Quyida XMLda tuzilgan dastur bilan tanishamiz:



### 1.1.2-misol. XMLda hujjat yaratish

```
<?xml version = "1.0"?>
```

```
<kitob>
```

```
<nomi> Oddiy XML </nomi>
```

```
<sana> 16 aprel, 2011 yil </sana>
```

```
<muallif>
```

```
<familiyasi> Imomova</familiyasi>
```


```
<ismi> Odina </ismi>
```

```
</muallif>
```

```
<malumot> XML tili juda ham oson </malumot>
```

```
</kitob>
```


Bu dastur bloknotga yoziladi va <dastur\_nomi>.xml ko'rinishida saqlanadi. Bu dasturni ishga tushirish natijasida quyidagi oynaga ega bo'lamiz



### 1.1.2-rasm

Buni quyidagicha qisqartiriladi:





### *1.1.3-rasm*

XHTML tili HTML va XML tillarining birlashmasini tashkil etadi. XHTML tilida yozilgan hujjatning tashqi ko'rinishi platformaga bog'liq (Windows, Mac yoki Unix) ravishda o'zgarib k tmaydi. Shunga qaramay XHTML tarkibida HTML diskriptorlardan foydalaniladi.

Bugungi kunda mobil aloqa vositalaridan foydalanuvchilar uchun yangi til ishlab chiqilgan bo'lib, u WML (Wireless Markup Language) d b ataladi; CDF (Channel Definition Format) - Microsoft ishlab chiqqan brauz rlarda push-kanal hosil qilishda qo'llaniladi.

### **Ss nariyli tillar. "Kli nt-s rv r" t xnologiyasi**

Hozirda Web-sahifaning rivojlanishi yanada int raktiv pog'onasiga chiqqan. Web-saytlar asta s kinlik bilan ilovalar int rf ysiga o'xshab bormoqda. Bularning barchasi zamonaviy Web-dasturlash t xnologiyasi yordamida amalga oshmoqda. Web-dasturlash t xnologiyalarini, dasturlarini asosan ikkita qismga ajratish mumkin: kli nt tomonidagi dasturlarlash (client-side) va s rv r tomonidagi (server-side). Ushbu t xnologiyalarni tushunish uchun avvalo b vosita "kli nt-s rv r" t xnologiyasini tushunish k rak

Web-sahifaning int raktiv dasturi ss nariy d b ataladi. Bunday atama dasturning natijasiga bog'liq holda vujudga k lgan. Uning asosiy vazifasi Web-sahifasida foydalanuvchi holatiga, harakatiga «r aksiya» b rishdir. Shu tariqa ss nariylar kli nt tomonida bajariluvchi va s rv r tomonida bajariluvchi ss nariylarga bo'linadi. Kli nt tomonida bajariluvchi ss nariylar brauz r yordamida bajariladi. S rv r tomonida bajariluvchi ss nariylar esa Web-s rv r yordamida bajariladi.

### **Kli nt tomonidagi s nariylar.**

Kli nt tomonidagi ss nariylar foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan ma'lumotlarni to'g'riligini s rv rga murojaat qilmasdan t kshiradi. Ko'p hollarda bu ss nariylar JavaScript va VBScript tillarida yoziladi.

## **JavaScript**

JavaScript – bu til Netscape va Sun Microsystems tomonidan yaratilgan bo'lib, Web-sahifaning funksional imkoniyatlarini orttirish maqsadida qo'llaniladi. JavaScript yordamida odatda ma'lumotli va muloqot oynalarini chiqarish, animatsiyalarni ko'rsatish kabi vazifalarni bajarish mumkin. Bundan tashqari, JavaScript-ss nariy ba'zan o'zi ishlab turgan brauzer va platforma tipini aniqlash mumkin. JavaScript-ss nariylar foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan ma'lumotlarni to'g'riligini tekshirishda ham qulay hisoblanadi.

## **VBScript**

VBScript tili Microsoft korporatsiyasi tomonidan yaratilgan bo'lib, Visual Basic tilining bir qismi hisoblanadi. VBScript tili Internet Explorer va Microsoft Internet Information Server (IIS)lar bilan ishlashga mo'ljallangan tildir. VBScript tilining JavaScript tili bilan umumiy qismlari birinchilikta, jumladan u aynan Microsoft Internet Explorer bilan ishlash va uning qo'llanish sohasini cheklash olish imkoniyatiga ega. VBScript internet ratorli til hisoblanib, Microsoft ning Web - texnologiyalari bilan hamkorlikda ishlay oladi, masalan ASP (Active Server Page) bilan. Shunga qaramay VBScript klient tomonida ishlovchi ss nariy hisoblanadi, ASP esa server tomonida ishlaydi.

## **Server tomonidagi ss nariylar.**

Server tomonida bajarilishi kerak bo'lgan ss nariylar odatda sayt papkasining ichidagi maxsus papkaga joylashtiriladi. Foydalanuvchi so'roviga asosan server bu ss nariyni bajaradi. Bajarilgan ss nariy natijasi web-serverga uzatiladi va undan so'ng klientga uzatiladi. Server tomonidagi ss nariylarni tashkil etish uchun odatda Perl, ASP, PHP, JSP va SSI kabi til va texnologiyalardan foydalaniladi.

## **Perl**

Perl tili Web-ilovalar yaratishda eng ommabop tillardan biri hisoblanadi. Matnlarni qidirish va taxrirlash, fayllar bilan qulay ishlay olish qoidalari bilan Perl tili Internet ning asosiy tillaridan biri bo'lib qoldi. Perl – internet ratorli til hisoblanadi, shu bois unda yaratilgan ss nariylar ishlashi uchun server kompyutorda Perl-internet rator o'rnatilgan bo'lishi kerak. Buvosita Perl-kodning internet rator tatsiya qilinish jarayoni uning samaradorligini pasaytiradi. Bugungi kunda Perl ning asosiy yutuqlaridan, uning barcha platformalar uchun ishlay olishi va uning barcha resurslarib pul tarqatilayotganligidir. Ko'pgina Web-serverlar UNIX da ishlaydi, Perl internet rator esa bu operatsion tizimning bir qismi hisoblanadi.

## **ASP (Active Server Pages)**

ASP-ma'lumotlar bazalari tashkil etish va ular bilan ishlash vazifalarini bajarishda juda moslashuvchan, qulay vositadir. ASP vositalari server tomonida ishlaydi va HTML-kod va ss nariylar kabi fayllarni qayta ishlaydi. ASP texnologiyasi VBScript, Java va JavaScript tillarini qo'llab quvvatlaydi. ASP-kod

ixtiyoriy HTML-hujjatdan, shu bilan birga boshqa ASP-hujjatdan chaqirilishi mumkin. ASP-kod joylashtirilgan Web-sahifalar fayllari k ngaytmasi .asp bo'ladi.ASP t xnologiya Windows NT va Microsoft IIS Web-s rv riga mo'ljallangan hisoblanib, imkoniyatlari va samaradorligi yuqori bo'lganligi bois ko'pgina kompaniyalar o'z vositalariga ASP ni qo'llab quvvatlash imkoniyatlarini kiritmoqdalar. ASP-vositalarini ishlab chiqish bo'yicha yirik kompaniya ChillsoftLid r sr di n zavisimo'x proizvodit l y ASP-sr dstv – kompaniya Chillsoft UNIX ning bir qancha turi va turli Web-s rv rlarda ASP ni qo'llash imkoniyatini kiritgan. Ko'pgina HTML-muxarrirlar, masalan Adobe GoLive ham ASP ni qo'llab quvvatlaydi.ASP t xnologiyasi bir n chta qulayliklarni o'zida jamlagan: HTML-hujjatni dinamik g n ratsilaydi, formalarni qo'llab quvvatlaydi, ma'lumotlar bazasiga ruxsatni tashkil etadi va u bilan ishlay oladi. ASP – dasturlash tili ham, ilova ham emas, u int raktiv Web-sahifa hosil qilish t xnologiyasi.

### PHP

PHP – bu s rv rda qayta ishlanuvchi ss nariylar tilidir. ASP kabi PHP kodlar ham b vosita HTML-hujjatni tarkibiga qo'shiladi. Ushbu tilning nomi Personal Home Page Tools so'zlarining qisqartmasidan olingan. PHP da C va Perl tillarida uchragan bir qator muammolar hal etilgan, bundan tashqari, PHP ma'lumotlar bazasi bilan ishlash uchun juda qulay vositadir. Umuman olganda Perl, PHP – ochiq tizimli tillar hisoblanadi va ularni dasturchilar mod mi zatsiyalashtira oladi.

### JSP

JSP (JavaServerPage) t xnologiyasi o'zining funksional imkoniyatlariga ko'ra ASP ga o'xshashdir. Asosiy farqi shundaki, bunda VBScript va JavaScript bilan birga Java tili ham qo'llanila oladi. Shunga qaramay JSP Java dan oldinroq qo'llanilgan va ushbu t xnologiya mukammal Web-ilovalar yaratish uchun yetarli imkoniyatga ega.

### SSI

SSI (Server Side Include) vositasi dastlab HTML-faylni dastlab s rv rda qayta ishlaydi va undan so'ng uni kli ntga uzatadi. Dastlabki qayta ishlash vaqtida hujjatga dinamik g n ratsiya qilingan ma'lumotlar qo'shiladi, masalan joriy vaqt haqidagi ma'lumot. Umuman olganda SSI t xnologiyasi HTML-faylning tarkibiga qo'shimcha qo'llanmalar qo'shishga mo'ljallangan, HTMLning qismi hisoblanadi.

### S rv r strukturasi.

Server - tarmoqqa ulangan va undan foydalanuvchilarga ma'lum xizmatlar ko'rsatuvchi kompyuter.Serverlar ma'lumotlarni saqlashi, ma'lumotlar bazasini boshqarishi, masalalarni masofadan qayta ishlashi, masalalarni bosib chiqarishi va boshqa bir qator vazifalarni bajarishi mumkin.

**Ishchi stansiya** - tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuter, foydalanuvchi shu orqali axborot resurslariga kirib boradi.

Tarmoqning ishchi stansiyasi ham tarmoq, ham lokal rejimida ishlaydi. U shaxsiy operatsion tizim (MS-DOS, Windows va hokazo) bilan ta'minlangan amaliy vazifalarni hal etish uchun foydalanuvchini barcha zarur vositalar bilan ta'minlaydi. Server turlaridan biri - fayl-serverga (File Server) alohida e'tibor berish kerak. Fayl-server tarmoqdan foydalanuvchilarning ma'lumotlarini saqlaydi va ularning ushbu ma'lumotlarga kirishini ta'minlaydi. Bu kompyuter katta hajmdagi tezkor xotiraga, katta hajmdagi qattiq diskka ega. U maxsus operatsion tizim boshqaruvi ostida ishlaydi. Fayl-server quyidagi vazifalarni bajaradi: ma'lumotlarni saqlash, ma'lumotlarni arxivlash, ma'lumotlar o'zgarishini sinxronlash, ma'lumotlarni uzatish. Ko'pgina vazifalarni bajarishda bitta fayl-serverdan foydalanish kamlik qiladi. Bu paytda tarmoqqa bir qancha fayl-serverlar qo'shilishi mumkin. Tarmoqdagi qurilmalarning o'zaro aloqasini boshqarish. Axborot tizimlari kompyuter tarmoqlari bazasida yaratilgan, u quyidagi vazifalar yechimini hal etadi: ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, foydalanuvchining ularga kirishini ta'minlash va ma'lumotlarni qayta ishlash natijasini uzatish. Markazlashgan qayta ishlash tizimida bu vazifalarni markaziy EHM (Mainframe, Host) bajaradi. Kompyuter tarmoqlari ma'lumotlarni qayta taqsimlab, qayta ishlashni amalga oshiradi. Bu holatda ma'lumotlarni qayta ishlash ikki ob'yekt: mijoz va server o'rtasida taqsimlanadi. Mijoz (kliyent) - vazifa, ishchi stansiya yoki kompyuter tarmog'idan foydalanuvchi. Mijoz ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida qiyin ishlarni bajarishi, faylni o'qishi, ma'lumotlar bazasida axborot izlash uchun serverga so'rov jo'natishi mumkin. Ilgaritdan belgilangan server mijozdan tushgan so'rovni bajaradi. Server hamma foydalanadigan ma'lumotlarni saqlaydi ushbu ma'lumotlarga kirishni tashkil etadi va mijozga ma'lumotlarni beradi. Mijoz olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydi va qayta ishlangan natijalarni foydalanuvchiga qulay ko'rinishda taqdim etadi. Bunday tizimlar uchun mijoz-server yoki mijoz-server arxitekturasi atamasi qabul qilingan.

Mijoz-server arxitekturasidan bir darajali lokal hisoblash tarmog'ida, shuningdek ajratilgan serverli tarmoqda foydalanish mumkin

**Web server** — foydalanuvchidan kelayotgan so'rovlarni qabul qilib, tegishli javobni jo'natadigan dasturdir. Foydalanuvchi sifatida veb brouzer(http, https protokoli orqali), mobil telefon(wap protokoli orqali), ba'zi dasturlar(antiviruslar) bo'lishi mumkin. Veb server orqali butun sayt boshqariladi, ya'ni sayt kataloglariga ruxsatlarni beradi, xavfsizlik jihatidan IP manzillarni blokka oladi, foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish va boshqa ko'plab ishlarni amalga oshiradi.

Web serverni siz o'z uyingizda yaratishingiz mumkin. Uning uchun bitta kompyuter ajratib, unga biror veb dastur o'rnatasiz va bu dasturni yaxshilab sozlashingiz kerak bo'ladi. So'ng o'z saytingizni shu serverga joylashtirasiz va biror domen sotib olasiz. Bundan kelib chiqadiki, saytingiz ishlashi uchun siz ajratgan kompyuter doim yoqilgan holatda bo'lishi kerak.



Web serverni tushuntirish uchun bitta lirik chekinish, o'xshatish qilaman (qo'polroq bo'lishi mumkin. Tushuntirish uchun nimalar qilishmaydi-a). Biror saytni bitta somsa deb tasavvur qilamiz. Somsa ichidagi masalig'lar, saytning ichidagi ma'lumotlar(matn, rasm, video,..). Bu somsani biror bir inson pishirgan, demak pishirgan odam, veb dasturchidir(kimlardir somsa pishishiga yordam bergan bo'lishi mumkin, bular veb dizaynerlar, verstkachilar). Bu somsani sotish kerak, uning uchun joy topish kerak va ruxsat olish kerak. Bu o'xshatish domen va hostingga mos tushadi. Sotuvchi bo'lsa, veb serverdir, ya'ni sotishni boshqaradi (puli borlarga sotadi, hohlasa sotmasligi ham mumkin), hullas sotishni boshqaradi.

Web serverga o'rnatiladigan veb dastur turlari ko'pdir. Eng zamonaviy va eng ommabop dastur bu – albatta "Apache"dir. Apache Software Foundation korxonasi tomonidan chiqarilgan. Quyida ba'zi bir veb serverlarni nomini keltirdim.

- Apache – Apache Software Foundation.
- IIS – Microsoft mahsuloti hisoblanadi. Server operatsion tizimlariga o'rnatilgan(Windows Server 2003, Windows Server 2008,..).
- Nginx – ochiq veb server. Katta hajmdagi saytlar uchun.
- Lighttpd – ochiq veb server.
- Google Web Server – Google tomonidan ishlab chiqilgan veb server.
- Resin
- Cherokee – veb interfeys orqali boshqariladi.
- Rootage – Java tilida yozilgan veb server.
- THTTPD – oddiy, kichik hajmdagi, tez va xavfsiz veb server.

## Web xosting

«**Hosting** (*ingl.* «web-hosting») – Internet hosting xizmatining bir turi bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarga o'zlarining web-sahifalarini internetga uzluksiz ulangan web-serverlarga joylashtirish xizmatini nazarda tutadi.»

Keling yanada oddiylashtirib, hostingni ko'p qavatli uy deb olaylik. Demak, sayt bu ko'p qavatli uyda joylashgan bir kvartira. Bundan kelib chiqsak domen o'sha kvartiraning manzili, hosting esa shu manzilda joylashgan kvartira. Kvartirada siz uchun zarur barcha narsalar mavjud bo'lsa, hostingda saytingiz uchun zarur barcha fayllari joylashadi.

Demak, hosting tanlashda nimalarga e'tibor berish lozim:

1. **Narxi.** Veb-dasturlashga endi kirib kelgan inson uchun bu muhim jihat desak yanglishmagan bo'laman. Ko'p hollar bu asosiy jihat desak yanglish bo'lmaydi. Bu masalada endi o'z hamyoningiz bilan kelishgan holda qaror qabul qilasiz.
2. **Do'stlar maslahati.** Deylik, biron do'stingiz yoki tanishingiz biron hostingdan foydalanmaslikni tavsiya etsa unga quloq solgan maqbul!
3. **Sifatli texnik qo'llab-quvvatlash.** Albatta, texnik yordam qanchalik tez va sifatli ko'rsatilishi ko'p narsani anglatadi. Shu sabab ushbu jihatga alohida e'tibor bering.



4. **Qulay admin-panel.** Hostingda barcha dasturiy taminot imkon qadar tushunarli va qulay bo'lishi lozim. Lekin, bu borada bir narsa deyish qiyin, chunki, menga yoqqa boshqaruv paneli kimgadir yoqmasligi mumkin. Qaysi boshqaruv panelini tanlash o'zingizga havola. Shaxsan menga cPanel yoqadi.
5. **Serverga tushadigan yuklanish chegarasi.** Saytingizga qancha ko'p inson kirsam serverga shuncha ko'p yuklanish tushadi. Ishni endi boshlayotganda bu haqida chuqur o'ylanish shart emas. Chunki, boshida saytingizga o'zingiz va bir-ikki tanishingizdan boshqa hech kim kirmaydi
6. **Trafik bo'yicha chegara.** Bu ham juda muhim hisoblangan jihat bo'lib, imkon qadar trafik bo'yicha chegara qo'yilmagan hostingni tanlang.
7. **Turli chegirma va aksiyalar.** Balki, bundan narsalar juda unaqa ahamiyatga ega emasdir. Lekin, e'tibor bergan yaxshi. Misol uchun bazi hostinglarda hostingni bir yilga sotib olsangiz domen sovg'a.



### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!**

1. *Internet texnologiya deganda nimani tushunasiz?*
2. *Qanday razmetkali tillarni bilasiz?*
3. *Klient-server texnologiyani qanday tushunasiz?*
4. *Internet tarmog'idagi Web-sahifalarni ko'rishimiz uchun qo'llaniladigan texnologiyalar?*
5. *Web-texnologiya klassifikatsiyasi?*
6. *Qanday teglar just teglar deb ataladi?*
7. *Ssenariy nima?*
8. *Klient tomonida bajariluvchi ssenariylar nima yordamida bajariladi?*
9. *Server tomonida bajariluvchi ssenariylar nima yordamida bajariladi?*
10. *Gipersaloqalar nima?*

**1.2-§. Web dizayning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari. O'zbekistonda dizayning rivojlanish tendensiyalari.**



#### **O'quv modullari**

*Web dizayn, Ozbekistonda web dizayning web dizaynni rivojlanish tendensiyalari*

Butunjahon tarmog'ida el ktron sahifalar va saytlarning turli shakllari asosidagi web-sahifalar kundan kunga ko'payib bormoqda. Bu holat mamlakatimizda ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Kimdir o'z shaxsiy sahifasini yaratasa, kimdir kompaniya va firmalar korporativ saytlarini, kimlardir esa ta'limga oid saytlarni hamda el ktron o'quv mat riallarini yaratmoqda. Yana kimdir o'z kundaliklarini, ya'ni bloglarini yaratish ustida ish olib bormoqda.

Shu bilan birga, yirik portallarning faoliyati ham rivojlanmoqda. Bularning hammasi Web saytlarni yaratish bilan bog'liq turli dasturlash tillari va dasturiy vositalari asosida yaratilmoqda. Web-sahifalarni yaratish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarining ba'zilar HTML tilida, ba'zilar PHP tilida, yana ba'zilar Web saytlarni yaratish va tahrirlash dasturiy vositalari yordamida, ishning mohiyatidan k lib chiqib ba'zi shu sohani mutaxassislari takomillashib borayotgan CMS (Content Management System) deb ataluvchi tizimlar yordamida web-saytlar, sahifalarni yaratmoqda.

### *Web saytlar yaratish tarixiga bir nazar*

1989 yilda Tim Berners-Li tomonidan World Wide Web, ya'ni Bunnjahon o'rgimchak to'ri ixtiro qilinganidan boshlab har bir foydalanuvchi oddiy bo'lsa-da, o'z Web-sahifasini yarata olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Lekin, buning uchun HTML (Hyper Text Markup Language) tilini bilish shart edi. Turli xil IT-kompaniyalari tomonidan bu ishni osonlashtiruvchi bir qancha dasturiy paketlar, jumladan Adobe Dreamweaver va Microsoft FrontPage kabilar yaratildi. Bunday dasturlardan ba'zilar sayt yaratishning barcha bosqichlarini (HTML-kodni yozishdan bu kodni serverga yuklashgacha) boshqarishni o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, ko'pgina hollarda foydalanuvchi bu kodni bilishi shart bo'lmagan. Sababi bu dasturlarda Web-sahifalarni yaratishning vizual usullaridan foydalanilgan.

Biroq, HTML-dasturlarining barcha afzalliklariga qaramay, saytni boshqarish vaqt o'tgani sayin va yangi ma'lumotlar qo'shilishi bilan qiyinlashib boravardi. Chunki axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan Web-saytlar ham rivojlanib bordi.

1994 yili PHP tilinig yaratuvchisi Rasmus Lerdorf o'zining saytiga muhimonlar kirishini hisoblash uchun Perl dasturlash tilida maxsus qobiq yozib amalda qo'llagan. Ko'p o'tmay qobiqni ishlash unumdorligi juda past va sokinligi aniqlanganidan so'ng, dasturlarni yangidan "C" tilida yozib chiqishga to'g'ri keladi. Keyin, dastlabki dastur kodlari muallif tarafidan barchaga ko'rish uchun serverga nashr qilingan. Server foydalanuvchilari kodlar bilan qiziqib, uni ishlatish muxlislari ham paydo bo'lgan. Had may, bu dasturlar alohida loyihaga aylanib, 1995 yilning iyun oyida dasturiy mahsulot PHP (Personal Home Page) nomi bilan birinchi nashri chiqarildi. Imkoniyatlari oddiy va sodda bo'lib: birinchi buyruqlarni tushunadigan kod analizatori (tarkibuvchisi), muhimonlar hisoblagichini, kitobini, chatini yaratish uchun foydali dasturlar to'plamidan iborat bo'lgan.

1996 yil aprel oyida dasturlar jiddiy qayta ishlanganidan so'ng, PHP/FI (Personal Home Page / Forms Interpreter) nomi bilan mahsulotning ikkinchi nashri paydo bo'ldi. Bu mahsulot HTML-kod ichiga yozilib, HTML-formalarni qayta ishlab, hozirgi PHP dasturlash tilining tayanch imkoniyatlarini ichiga olgan. PHP/FI kod yozilishi Perl tiliga juda o'xshagan, lekin soddarroq bo'lgan.

1997 yili PHP/FI 2.0 nashri chiqdi. O'sha paytda bu mahsulot bilan dunyo bo'yicha bir n cha ming odam foydalanib, taxminan 50 ming dom n bo'lib, Int rn tning 1%-ni tashkil qildi.

1997 yilda Endi Gutmans va Ziv Suraski PHP/FI kodini boshqatdan yozib chiqishdi, chunki eski kod ular ishlatayotgan el ktron tijorat tizimlari uchun yaroqsiz edi. Eski kodning mualliflaridan yordam olish uchun ular birlashishni taklif etib, PHP3 nomli loyihani PHP/FI -ni rasmiy vorisi d b e'lon qilishdi. Yangi loyiha uyushgandan k yin PHP/FI loyihasi ishlab chiqarilishi to'xtatilgan.

PHP 3.0 ning eng kuchli taraflaridan biri uning k ngaytirala olinadigan yadrosi (tizimning bosharuv qismi) bo'lib, bundan tashqari, ma'lumot Jang'armalar bilan, turli protokollar va int rf ysalar bilan birgalikda ishlash k ng Imkoniyatlari yaratildi. Muvaffaqiyatga erishishga ancha ahamiyatli fakt bu yangi tilni boyligi va ob' ktlarga mo'ljallangan dasturlashni qo'llay olishi. Yangi loyiha bilan birga nafahat tilni tashqi, ichki tuzulishi o'zgardi, balki o'zini nomi ham. Endi PHP qisqartmasi "PHP:Hypertext Preprocessor" ma'nosini anglatishi bildirildi.

1998 yilning oxirida PHP foydalanuvchilarning soni o'n minglardan oshdi. Yuz mingdan oshiq web-saytlar bu tilni qo'llashini e'lon qilishdi. Taxminan Int rn tning 10% s rv rlarida PHP 3.0 o'rnatilgan edi.

1998 yilning iyun oyda PHP3 to'qqiz oy ommaviy t kshiruvidan k yin rasman e'lon qilindi. Shu yilning qishida Endi Gutmans va Ziv Suraski PHP yadrosini qaytadan ishlab chiqarishni boshlashgan. Ularning asosiy vazifasi PHP tizimining unumdorligini ko'tarish va kodning modullarini yaxshilash edi. 1999 yilning o'rtalarida birinchi marta taqdim qilingan yangi yadro "Zend Engine" d b nomlangan ("Zend": mualliflar "Ziv" va "Andi" ismlardan tashkil topgan). Uning asosida tuzilgan yangi til PHP4 2000 yilning may oyida rasman chiqarilgan. Unumdorlik yaxshilangandan tashqari, PHP 4.0 muhim yangiliklarga ega bo'lib, s ssiyalarni qo'llash, buf rli chiqarish, kiritilgan ma'lumotlarni havfsiz qayta ishlash va yana bir n cha yangi til tuzuvchilarini paydo bo'lishidan iborat.

Hozirgi kunlarda "Zend Engine" qayta yaxshilanib PHP5 tili ishlab chiqarildi. Asosiy o'zgarishlar ob' ktlarga mo'ljallangan dasturlash mod lida bo'lib, tilning imkoniyatlari yanada k ngaytirdi.

Hozirda PHP tilini yuz minglab dasturchilar ishatib, bir n cha million saytlar yaratilib, Int rn tning 80% dom nlarini tashkil etmoqda.

Nashr	Sana	Izoh
PHP 1.0	1995 yil, 8 iyun	Rasmiy nomi "Personal Home Page Tools (PHP Tools)". Bu "PHP" qisqartmani birinchi marta ishlatilinishi.
PHP 2.0	1996 yil, 16 apr l	Web sahifalarni "T z va oson ishaydigan qurol" d b e'lon qilingan mahsulot.
PHP 3.0	1998 yil, 6 iyun	Bir kishi ishlab chiqaruvchi loyihadan ko'p ishlab chiqaruvchilar loyihasiga aylandi. Endi Gutmans va Ziv Suraskl kodni boshqatdan yozib chiqishdi.
PHP 4.0.0	2000 yil, 22 may	Yangi yadro "Zend Engine" asosida tuzilgan
PHP 4.1.0	2001 yil, 10 d kabr	Til konstruksiyasiga sup rglobal imkoniyatlar qoshilgan (\$_GET, \$_POST, \$_SESSION, etc)
PHP 4.2.0	2002 yil, 22 apr l	Xavfsizlikni oshirish maqsadida tizimning sozlash "Register_globals" param tri ochirilgan
PHP 4.3.0	2002 yil, 27 d kabr	"CGI" (Common Gateway Interface)ga qo'shimcha "CLI" (command line interpreter) t xnologiyasi kiritilgan.
PHP 4.4.0	2005 yil, 11 iyul	phpize va php-config skriptlari uchun qo'llanma varaqlari qo'shilgan.
PHP 5.0.0	2004 yil, 13 iyul	Zend Engine II – yangi ob` kt mod li kiritilgan.
PHP 5.1.0	2005 yil, 24 noyabr	Zend Engine II ishlash unumdorligi yaxshilangan.
PHP 5.2.0	2006 yil, 2 noyabr	K ngaytiradigan filtr modullarining PHP tizimida ishlatish imkoniyatlari ochiq holati o`rnatilgan (default).

PHP turli xil sist malarda ishlay oladi. U sist ma Windows, Unix ning ko'plab v rsiyalari, shuningd k Linux va xatto Macintosh bo'lishi mumkin. PHP ko'plab tarmoq s rv rlarida, xususan Apache, Microsoft Internet Information Server, Web Site Pro, Iplanet Web Server va Microsoft Personal Web Serverlarda ishlashi mumkin. Agar o'zimiz tuzgan dasturlarimizni Windows tizimida t kshirishni xoxlasak oxirgi sanab o'tilgan s rv rdan foydalanishimiz mumkin, xatto Apache s rv ri Windows sist masi boshqaruvida ishlasa ham.

PHP int rpr tatori yordamida dasturni aloxida mustaqil ko'rinishda kompilyasiya qilish mumkin. U xolda dasturni mustaqil ishga tushirish mumkin. PHP tilini yaratishda ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanish talablarini aloxida e'tiborga olingan. Ko'plab ma'lumotlar bazalarini PHP da o'qish mumkin. Masalan, bularga Adabas D, InternetBase, Golid, dBase, mSQL, Sybase, Empress, MySQL, Velosic, FilePro, Oracle, Unixdbm, Informix va xokazolarni k litirishimiz mumkin. SHuningd k, PHP ODBC standartini ham o'qiy oladi.



Ajax texnologiyasi terminini Jesse James Garrent 2005-yil 18-fevraldagi "Web sahifalarga yangi yondashuv" nomli maqolasida birinchi bo'lib ishlatgan. Keyinchalik uni amalda qo'llagan. AJAX - Asynchronous Javascript and XML ya'ni asinxron JavaScript va XML.

Web texnologiyalari 2 turga bo'linadi.

1. Server
2. Klient

Klient qismidagi ayrim qulayliklarning ta'minlanishi ajax texnologiyasi bilan bog'liq ya'ni internet tezlik uncha yuqori bo'lmasa ham ajax texnologiyasi yordamida serverdan ma'lumotlarni olish mumkin. Agar php yordamida serverga murojaat qiladigan bo'lsak sahifalar qayta yuklanishi kerak bo'ladi. Bunda internet tezligi yuqori bo'lishi kerak va har bir harakat uchun sahifalar yangilanishini kutish kerak. Ajax texnologiyasi serverga qismga yordamchi qism hisoblanadi, ya'ni foydalanuvchining imkoniyatlarini oshiradi.

Ajax texnologiyasining eng muhim jihatlardan biri bu sahifalarni qayta yuklamasdan serverdan ma'lumotlarni yuklab oladi.

Ajax ning 2 ta xususiyati bor:

Sahifalar qayta yuklanmasidan serverga borib amal bajarib qaytib kela oladi. Bunda ma'lumotlar JSON yoki XML formatida jo'natiladi va qabul qilinadi.

DHTML ya'ni o'zgaruvchan sahifalar yaratish, ya'ni javascript bilan ishlash.


MySQL Shvetsiyadagi MySQL AB firmasi tomonida yaratilgan bo'lib, 2008 yilning fevralida Sun Microsystems tomonida sotib olingan. Endlikda dastur kodini yaratishda ushbu firma javobgar. MySQL Server ochiq, ya'ni tekin dasturiy ta'minot bo'lib, General Public License himoyasidir ya'ni turli himoyalar qo'yilmagan (kalitlar, litsenziya). MySQL AB/Sun firmasi dastur kodiga mualliflik huquqiga egaligi sababli, ushbu dasturiy ta'minotning kommerzial turi ham bor. MySQL nomining kelib chiqishi aniq emas. 1996 yildan beri ko'plab biblioteka va tool (vosita)lar nomi oldida My prefiksi qo'yila boshlangan.

Bu dastur o'zi bilan quyidagi amallarni bajaradi, yani kompyuterlar ichki tizimi bilan aloqa o'rnatish va ma'lumotlarni takrorlash va ma'lumotlarning saqlanish joyini aniqlash.

Sayt xaritasini yaratishda k oddiy funktsiyani qo'shish uchun ham Web-yaratuvshilar tomonidan ancha-muncha m hnat talab etilar edi. Axir buning uchun barcha ilovalarni ko'rib chiqish, sahifalar orasidagi bog'liqliklarni t kshirish, m nyuni yaratish, forumni qo'shish kabi ishlarni bajarish lozim edi. Bu esa doimiy diqqatni va juda ko'p vaqtni talab etardi.

Sayt yangilanishi muammosini, ya'ni yangilanishning avtomatlashtirishini hal qilish maqsadida yirik axborot kompaniyalari, jumladan, Newsweek va Time yangi dasturiy ta'minot yaratish ishlarini boshlashga majbur bo'ladi. Bu dasturiy ta'minotlar kont ntni (ma'lumotlarni) boshqarish tizimlari (CMS – Content Management System) d b ataldi.

CMS—bu Content Management System dan olingan k, ngaytma, u so'zma- so'z tarjima qilinganda "Sayt kont ntni Boshqarish tizimi" yoki "Sayt Boshqarish tizimi" bo'ladi.





qarish Tizimi” larni anglatadi. Ba’zida CMS ni saytning “Harakatlantiruvchisi” d b atashadi.

### *O'zbekistonda dizaynning rivojlanish tendensiyalari*

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida kompyuter va axborot texnologiyalarining rivojlanishi telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyasi, ma'lumot uzatish va internet xizmatlarining keng qo'llanilishiga imkoniyat yaratmoqda.

Respublikada talantli yoshlar ishtirok etadigan internet – festivallar, internet – forumlar, shaharlarda va qishloqlarda umumiy tarmoqqa ulanishlar miqdori oshib bormoqda, bundan kelib chiqadiki, ma'lumot uzatish xizmatlari kengaymoqda va ularning servis xizmatlari yanada intellektualroq bo'lib bormoqda.

Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti xamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Chunki aynan mana shu narsa butun jamiyatning axborotlashtirilishi uchun asos va muxim zamin bo'ladi.

Iqtisodiyotni globalashtirish sharoitida informasion madad istagan darajadagi tashkiliy xo'jalik faoliyatining unumli rivojlanishiga, aholining axborotlashtirilganligi va farovonligini o'sishiga va odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yaxshilanishiga ko'maklashuvchi muhim el m ntlardan biriga aylanib bormoqda. Bunday yutuqlar k ng ko'lamlı WWW tarmog'i va unga joylashgan Web-saytlarning doimo ishlab turishi evaziga erishiladi. SHuning uchun hozirgi vaqtda har bir tashkilot yoki har bir shaxs, qa rda ishlashidan qat'iy nazar, int rn tda o'z joyini yaratish zarurligini tushunmoqda. CHunki bu usul natijasida butun dunyoga o'zi to'g'risida, o'zining ish faoliyati to'g'risida gapirish va int rn tning b poyon r surslaridan o'z maqsadi yo'lida foydalanish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Axborotni int rn tda joylash uchun, yuqorida aytilganid k, uni ekranda aks ettirish uchun qulay bo'lgan ko'rinishda, ya'ni Web-sahifa ko'rinishida taqdim etish zarur, chunki bu sahifada joylashtirishni xohlagan foydalanuvchi axboroti har tomonlama bo'lishi va u ko'p hollarda Web-saytda joylashishi mumkin.

Aql bilan yaratilgan sayt, qoida bo'yicha, informasion yagona bus-butun hisoblanadi va joylanajak axborot mohiyatiga qarab alohida krit riya va standartlarga ega bo'ladi, va ko'plab tashkilot va muassasalar, xususiy foydalanuvchilar uchun o'zlarining tashkilot va shaxsiy ish faoliyatlarida Web –t xnologiyani va uning el m ntlarini tadbiiq etish bo'yicha ko'plab har xil muammolarga duch k linadi. Bu Web-saytlar int rn t s rv rlarida joylashguncha va nashr qilinguncha Web-t xnologiya va dizayn asoslaridan yuqori va chuqur bilim talab qiluvchi, ko'pqirrali va prof ssional-int ll ktual ishdir. Va bu muammolar zamonaviy Web-t xnologiyalar bo'yicha mutaxassislar yetarlicha bo'lgandagina yechiladi. Shuning uchun Web-sahifa yaratish va uni o'rganish jarayoni, shu b rilgan yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun uchun juda muhim va faol hisoblanadi. Bu mutaxassislik kuchli va k lajagi porloq prof ssiya, u hozir ham, k lajakda ham hamisha, o'z o'rniga ega bo'ladi

Boshqa tomondan Web-saytlarni yaratish va o'rganish muammosining faolliigi va muhimligini quyidagi sabablar bilan asoslash mumkin:

- ✓ taqdim qilinayotgan internet servis xizmatlari muhitini ko'p miqdordagi kengayishi va ulardan foydalanishning osonligi bilan;
- ✓ tarmoq Web–texnologiya, ularning resurslari va imkoniyatlarini hamma joyda tarqatish bilan;
- ✓ istagan darajali axborotlarga bo'layotgan talablarning o'sib borishi bilan;
- ✓ tashkilot va xususiy shaxslarning o'zlarini va o'z ish faoliyatlarini to'g'risidagi axborotlarni internetda joylash uchun intilishlarning o'sishi bilan;
- ✓ tarmoq ma'lumotlar bazasidagi global masshtabdagi har xil maqsaddagi axborotlarga e'tibor qaratish bilan;
- ✓ har mamlakat, millat va fan odamlarining o'zaro muloqot va tushunishlarga bo'lgan intilishi bilan;
- ✓ Web–texnologiyaning barcha yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislarining yetishmasligi bilan.

Shunday qilib, internet xizmatlaridan ikkita xizmat ajratib alohida e'tibor berish kerak, ya'ni tarmoq abonentlararo axborot almashuvi va axborot qidirish va tarmoq birlangan bazasidan foydalanish. Xizmat taraqqiyotining samarasi to'g'risida gap kenganda barchamiz har xil internet xizmatlaridan potentsial foydalanuvchiga aylanib qolishimizni ta'kidlash zarur.



## MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!

1. Internetning paydo bo'lish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. www nima?
3. Internet asoschisi haqida nimalarni bilasiz?
4. O'zbekistonda internetni rivojlanishi tarixini bilasizmi?
5. Web texnologiya nima?

### 1.3-§. Web dizayn texnologiyalari: saytning mantiqiy va fizik strukturasi




#### O'quv modullari

*katalog tuzilishi, navigatsiya tuzilishi, navigatsiyaning matnli sistemasi, tugmalar (knopki), navigatsiya xaritalari.*


**Saytning umumiy tuzilishi.** Saytning tuzilishini rejalashtirganda bir nechta asosiy narsalarni albatta o'ylab ko'rish kerak: katalog tuzilishi, navigatsiya tuzilishi, sayt zastavkasining zarurligini.

**Katalog tuzilishi.** Eng avvalo sizning loyihangiz ichidagilarni tartibga solish kerak. Hamma rasmlarni bitta papkaga ish fayllarini boshqasiga joylashtiring. Sahifalarning o'zini ham bo'lsa bo'ladi (masalan, bo'limlarga). Shunday qilsangiz, o'zingizga oson bo'ladi. Buning uchun kelajakdagi saytingizning tuzilishini aniqlashtirib olishingiz kerak. Bir necha asosiy tuzilishlar mavjud:




*chlziql* – betlar berilgan tartibda joylashtirilgan. Bir betdan ikkinchi betga o'tish qat'iy teglangan. Bunday tuzilish oson va tartibi bilan o'qishga asoslangan. Betlarni berilgan tartibda joylashtirishda, amin bo'ling-ki, foydalanuvchi kerakli ma'lumotlarning birortasini chetda qoldirmaydi:

*ierarxik*– betlar toifaga va toifa bo'lakchalariga bo'lingan. Bunday tuzilish juda ham qulay:



*erkin*– betlar bemaolol tartibda joylashgan. Bunday tuzilish faqat uchta katta bo'lmagan saytlar uchun:



Fayl nomlari haqida bir necha so'zlar: ular harflardan, siz bergan ramzlardan iborat bo'lib, bosh harflarga ega bo'lishi shart emas.

*Navigatsiya tuzilishi.* Bu resursni rejalashtirishda eng asosiy qism bo'lib, saytdagi axborotga kirishi oddiy va tushunarli bo'lishi kerak. Foydalanuvchi xohlagan vaqtda kerakli savollarga javob berishi kerak:

1. Men qayerda turibman?
2. Qayerga borishim kerak?

3. Qanday qilib u yerga borsa bo'ladi?

4. Orqaga qanday qaytsa bo'ladi?

Bunday masalalarga javob topish uchun har xil variantlardan foydalaniladi. Masalan, qanday qilib «menyu» sahifasidan foydalanuvchini topish mumkin va menyu o'zini qanday qilib hamma sayt sahifalarida ko'rinarli qilishi mumkin.

Yana shu bilan birga navigatsiya kalitlarini ham qilish mumkin, ya'ni har bir sahifada sxema bo'yicha shu sahifaga to'liq yo'lni ko'rsatish: bosh bet – bo'lim nomi – sahifa nomi.

Umuman olganda, 3 klik qoidaga rioya qilish kerak, chunki foydalanuvchi aytning xohlagan sahifasiga o'tishda kamida 3 klikda yetib borishi kerak.

#### ***Navigatsiyaning asosiy sistemalari:***

*Navigatsiyaning matnli sistemasi* – eng ko'p tarqalgan turlaridan biri. Aytish kerak-ki, boshqa navigatsiya sistemalaridan foydalangan taqdiringizda ham navigatsiya matni qatnashib turishi kerak. Umuman aytganda, bunday navigatsiya matnli jo'natmani har xil usullar bilan bezatishni aks ettiradi.

Gorizontal va vertikal menyularga bo'linadi. Vertikal har bir varaqning o'ng yoki chap tomonida joylashadi. Gorizontal menyu – sayt shapkasining tagida joylashgan. Qulaylikni yaratishda har bir sahifaning tagida gorizontal menyuni nusxa qilishni maslahat beriladi.

*Tugmalar (knopki)* – chastota bo'yicha ishlatish ikkinchi navigatsiya elementlari bo'lib keladi. Tugmalar har xil o'lcham, shakl, rang va uslubda bo'lishi mumkin. Ularni ishlatishda har bir voqeani tahlil qiluvchi (masalan, JavaScript)ga ulash kerak bo'ladi va shunda har bir voqeani tugmani bosishda yoki bo'lmasa sichqonchani boshqarishda tavsiflab beradi.

Eng optimal qarorlardan biri: tugma turini qoldirish (fonda), matnni esa undagi jo'natma turida bezatish kerak. Xulosa shuki, CSS vositalari bilan bunga erishish qiyin emas.

*Navigatsiya xaritalari.* Bunday kirishishda bitta tasvir olinadi va ularning har xil sohalariga jo'natma berkitiladi. Eng keng tarqalgan misollardan biri bu jahon turistik xaritasi, tugmani bosa

siz, qaysi mamlakat bo'lishidan qat'i nazar va shu mamlakatga bag'ishlangan sahifaga tushasiz. Sahifaning tagida uncha ko'zga ko'rinmaydigan gorizontal menyuda xaritani albatta nusxa qilish kerak. Bo'lmasa, arzimagan sabablar bilan foydalanuvchi hech qayerga kirolmasligi mumkin.

Masalan, hammaning munosabati har xildir: birlari buni qo'llab-quvvatlaydilar, boshqalarga bu yoqmaydi.

Shuning uchun saytning zastavkasini qiladigan bo'lsangiz, yuklamani o'tkazib yuborishni yoki rolklarni ko'rish xohishi bo'lmaganlarga bu funksiyani tadbiqu etishni unutmang.

*Saytning asosiy sahifasi.* Odatda bu foydalanuvchi tushadigan birinchi sahifa. Shuning uchun ba'zi bir shartlarni qoniqtirishi kerak:

- bosh sahifa saytning tematikasini aks ettirishi kerak;
- u qiziqarli bo'lishi kerak, sababi foydalanuvchida saytning keyingi sahifalariga kirish xohishi uyg'onishi kerak;



- iloji bo'lsa, sayt bo'yicha qidiruv funksiyasini joylashtirish kerak;
- unda axborotni yangilab turadigan bo'limlar bo'lsin; masalan, yangiliklar, aksiya, maslahat kuni;
- qayta aloqa usuli mavjud bo'lishi kerak (e-mail, telefon, manzil);
- bosh sahifani boshqa sahifadan sayt umumiy uslubiga javob beradigan qiling.

**Saytning boshqa sahifalari.** Saytning hamma sahifalar tashqi turi butun bir uslubda bo'lishi kerak. Ularda resursning nomi va bosh sahifaga jo'natmasi ko'rsatilishi kerak. Har bir sahifa o'ziga xos maftunkor, ya'ni kerakli ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bunda bir nechta kerakli daqiqalarni hisobga olganda:

1. Sahifaning uzunligini kuzatish kerak. Agarda u 2,5 ekrandan katta bo'lsa, uni ikki sahifaga bo'lish kerak;
2. Matnni xat boshilarga bo'lish kerak, ortga va maydon. Matnni sarlavha va sarlavhachalarga ajrating. Shunday qiling-ki u tez va oson qabul qilinishi kerak;
3. Matnni rasm va grafika bilan ta'minlang, faqat bachkana bo'lib ketmasin va hammasi dalili bilan bo'lishi kerak.



### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!**

1. Saytning mantiqiy va fizik strukturasi deganda nimani tushunasiz?
2. Navigatsiya nima va u nima uchun zarur?
3. Sayt dizayninin loyihalashda nimalarga e'tibor herish kerak?
4. Saytning asosiy sahifasi qanday bo'lishi kerak?


### **1.4-§. Saytning statik va dinamik komponentlari**



#### **O'quv modullari**

*web dizayn, O'zbekistonda web dizaynning web dizaynni rivojlanish tendensiyalari*

Oddiy sayt qanday prinsip asosida ishlashini ko'rib chiqamiz. Foydalanuvchi biror-bir, masalan, page.html sahifasiga murojaat qildi d ylik. V b-s rv r o'zidagi V b-sahifalar katalogini ko'rib shiqadi va agar page.html bo'lsa, foydalanuvchiga uni ko'rsatadi, aks holda esa – 404-chi ("Fayl topilmadi")xabarni yetkazadi.



*1.4.1-rasm. Web-serverning statik sayt xolida ishlashi*



Dinamik sayt esa biroz boshqacha ishlaydi. Foydalanuvchi biror sahifaga murojaat qiladi, biroq bu murojaat diskdagi aniq bir faylga emas, balki sayt dvijoklga (agar dvijok PHP tilida yozilgan bo'lsa, odatda bu fayl index.php bo'ladi) qaratilgan bo'ladi. Dvijok foydalanuvchiga k rakli ma'lumotni biror manbadan (masalan, ma'lumotlar bazasi yoki diskdagi fayldan) oladi, uni HTML-sahifaga aylantiradi va V b-s rv rga uzatadi, u esa o'z navbatida, foydalanuvchi brauz rga jo'natad.



### 1.4.2-rasm Web-serverning dinamik sayt bilan ishlashi

Unda yana bir savol tug'iladi: agar bitta faylnigina so'rab, uni brauz rga uzatish mumkin bo'lsa, buncha murakkablashtirishning o'zi nimaga k rak? SHuning uchunki, bu saytni boshqarish qulay bo'lsin. Aytaylik, siz yuz sahifalik oddiy sayt yaratdingiz. Ertami-k ch siz bu sayt dizaynini, ko'rinishini o'zgartir-moqchi bo'lasiz. U holda esa siz shu yuz sahifani qo'lda o'zgartirib chiqishingizga to'g'ri k ladi. Ustiga-ustak, siz avvaliga bu yuz sahifani kompyu-t ringizdagi lokal s rv rga yuklab olishingiz, undan so'ng tahrirlab, k rakli o'zgartirishlarni kiritishingiz va oxlrida yana s rv rga yuklashingiz k rak bo'ladi.

Ana endi dinamik sayt qanday ishlashini ko'rib shiqaylik. Asosiy voq a – "HTML-sahifani yaratish". Ya'ni dvijok kont ntni – matnli ma'lumotni (u rasm va jadvallar bilan ham bo'lishi mumkin) oladi va uni dizaynga "kiyintiradi". D mak, saytning dizaynini o'zgartirish uchun siz faqatgina tayyor grafik mavzuni o'rnat-lishingiz yoki bir-ikkita faylni – sayt shablони fayllarini o'zgartirishingiz k rak.

CMS tizimi sahifalarni dinamik ko'rinishga k ltiradi: ular foydalanuvchi sahifani ko'rmoqchi bo'lgandagina amalda yaratiladi. Bu d gani, sahifalar foydalanuvchi tomonidan b vosita ko'rilyotganda yangilanishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Bu tizimlarning asosiy jihati shundaki, dinamik w b-sahifalarni oson yarata olish va ularni turli xil axborot bilan to'ldirish imkoniyatini b rishdir. CMS tizimlari odatda murakkab bo'lib, ular o'z ishiga xabarlarini tarqatish xizmatlari (RSS), forumlar va int rn t-do'konlarni oladi. SHu bilan birga, ularni o'zgartirish ham oson.



### MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!

1. Statik va dinamik saytlar qanday farqlanadi?
2. Statik saytning afzalliklari va kamchiliklari qanday?
3. Dinamik sayt afzalliklari va kamchiliklari qanday?
4. Dinamik sayt yaratish qanday bosqichda amalga oshiriladi?

## 1.5-§. Web-saxifa elementlari



### O`quv modullari

sarlavha, logotip, qidiruv, reklama banner, kontent, navigatsiya elementlari, tashriflar hisobi

Har qanday web-sahifa har bir Internet-resursning zarur komponentlari bo'lgan standart elementlarning maxsus majmuini o'z ichiga oladi. Ular saytning turi va maqsadidan kelib chiqib sahifaga joylashtirilishi mumkin. Web sahifalarda eng kamida quyidagi elementlar mavjud bo'lishi mumkin:

1. Sarlavha/Logotip
2. Qidiruv
3. Reklama banneri
4. Kontent/asosiy matn
5. Navigatsiya elementlari
6. Saytni ishlab chiquvchi haqida ma'lumot
7. Tashriflar hisobi

Albatta, bunday ob'ektlarning ko'lamini va sonini saytning tematik markaziga, sizning hoxishingizga qarab farq qilishi mumkin! Ushbu elementlar yaratuvchi tomonidan belgilanadigan maqsadlar bo'yicha aniqlashtiriladi. Bunday elementlarning yig'ilishi, ularning o'zaro kelishuvi dizayni web dizaynning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Biz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan veb-sahifaning birinchi elementi uning nomi. Har ikkala holatda ham hujjatning yuqori qismida joylashgan bo'lishi kerak, ammo matn va grafik shaklda bajarilishi mumkin.

Saytning logotipi yoki nomi tahskilotning kirish qismidagi belgiga o'xshash vazifani bajaradi. Do'konga borganimizda, darvoza oldida belgilarni ko'rish kifoya. Internetda har bir sahifada ushbu yozuvni ko'rish kerak.

Biz saytning logotipi sahifaning yuqori qismida, odatda chap yoki o'ng tomonda bo'lishini kutamiz. Buning sababi, logotip butun saytni bir butun sifatida aks ettiradi va shuning uchun saytning mantiqiy ierarxiyasidagi eng yuqori pozitsiyani egallaydi. Har bir sahifaning ierarxiyasida siz ushbu dominant pozitsiyani ikki shaklda tasvirlashingiz mumkin: logoni sahifadagi eng ko'zga ko'ringan ob'ekt sifatida yaratib qo'ying yoki sahifaning mazmuni uchun ramka vazifasini bajaradigan qilib qo'ying.

Har bir sayt samaradorligini oshiruvchi asosiy element bu qidiruv tizimidir. Qidiruv tizimining mavjudligi va mukammaligi sayt reytingini oshiradi. Ma'lumotlarni oson topish imkonini beradi.

Sayingizda zaruriy bo'lmagan element reklama bannerlaridan foydalanishingiz mumkin. Bu saytni moliyaviy qo'llab quvvatlanishini ta'minlaydi.

Saytning asosiy mazmuni content qismida aks etadi. Unda barcha zaruriy ma'lumotlar talab bo'yicha joylashishi mumkin.

Web-sahifaning keyingi majburiy qismi- ushbu hujjatni saytning boshqa bo'limlari bilan bog'laydigan hiperishoratlar - navigatsiya elementlaridir. Navigatsiya elementlari matn satrlari, grafik ob'ektlar, ya'ni tugmalar yoki Java illovalari kabi faol komponentlar shaklida bo'lishi mumkin.

Eng yaxshi tashkil etilgan yondashuv navigatsiya elementlarini sahifaning chap chegarasida yoki yuqori qismida joylashtirishdir.

Hujjatning pastki qismida sayt egalari va e-pochta manzillari haqidagi ma'lumotlarni nashr etilishi odatiy bo'lib, u yerga tashrif buyuruvchilar sayt egalari javoblarini, taklif va takliflarini yuborishi mumkin.

Agar web-sahifa boshlang'ich hujjat bo'lsa, uning pastki qismida mehmon hisoblagichi joylashtiriladi, bu hisoblagich ko'rsatkichini o'zgartirib, foydalanuvchi brauzerida hujjatning har bir ochilishini qamrab oladi. Buning yordamida web dasturchi o'zining sahifasini tashrif buyurgan mehmonlar sonini osongina aniqlashi mumkin. Hisoblagich taymeri faqat saytga kirish paytida chaqirilgan birinchi sahifada o'rnatiladi. Xuddi shu sahifada bir nechta taymerni joylashtirish tavsiya etilmaydi.



### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!**

1. *Web sahifa qanday elementlardan iborat?*
2. *Sarlavha nima?*
3. *Saytda qidiruv tizimi ahamiyati qanday?*
4. *Sayning foydalanuvchilarni ro'yxatga olish tizimining ahamiyati qanday?*

## 2-BOB. HTML. ASOSIY TUSHUNCHALAR.

### 2.1-§. Hujjat tuzilishi. HTMLning asosiy teglari.



#### O'quv modullari

*hujjat tuzilishi, HTML, teg, HTMLning asosiy teglari, SublimeText*

**HTML haqida asosiy tushunchalar.** HTML (*HyperText Markup Language*) – kompyuter ekranida ma'lumotlarni ma'lum bir shaklda aks ettirishga mo'ljallangan hujjatlarni belgilash tili.

Hujjatni yaratishda matnning qaysidir qismini qalin, kursiv, o'lchami kata yoki rangli qilib ajratishga, matnni markazdan to'g'rilashga to'g'ri keladi. Buning uchun matn muharririda yetarlicha uskuna va imkoniyatlar mavjud hamda uni formatga tadbqiq etish mumkin. Maslan, matnni kursiv qilish uchun uni belgilash va **Kursiv** tugmasini bosish kerak bo'ladi. HTML tilida bunga quyidagi kodni yozish bilan erishish mumkin: `<i>Matn</i>`

`<i>` belgisi matn belgilanishini boshlangan joyni bildiradi `</i>` belgisi esa belgilangan fragment tugaganini bildiradi.

`<i>` va `</i>` belgilarini *teglar* deb atash qabul qilingan.

Teg – HTML element, brauzerga ko'rsatgan holda rasm, animatsiya va matnning web sahifasining qayerida joylashishini, matnni qanday – katta, qalin, kichkina, kursiv bilan yozilishini, qayerdan yangi satrni boshlab, qayerdan tugashini ko'rsatib beradi.

HTML tili teglari ramzlar bilan ajraladi: chegaralovchilar (`<b>`), bunda tegning identifikatori (nomi) parametri yoziladi (bizning misolimizda bu `b`). Bu qoidaning yagona inkori bu qiyinroq chegaralanuvchi (`<!-va-->`) tegi izohlaridir. Teglar nomini va ularning parametrini xohlagan registrda yozib olish mumkin. HTML teglarining ko'pi juft bo'lib qo'llaniladi, ya'ni ochuvchi teg va yopuvchi teglar HTML qoidasiga binoan yopiq teglar singari yozib olinadi, teg nomidan oldin faqat ramzi bilan juftli teglarning yagona prinsipial farqi shundaki, yopiq teglar parametrlarni qo'llamaydilar.

Asosan, hamma teglar juftli, ya'ni biri ochuvchi `<>`, boshqasi yopuvchi `</>`. Bunday juftlik teglar konteyner deyiladi. Uningo'rtasidagi joylashgan boshqa hamma narsalar konteyner ma'lumotdir. Teglar harakati faqat ularning ichidagi narsalarga qo'llaniladi. Ba'zida tugallangan tegni tushirish mumkin.

Teglar yordamida hujjatning barcha strukturasi tavsiflanadi. Teglar burchakli qavslar `"<"` va `">"` ichiga yozilgan so'zlar bilan belgilanadi. Juda ko'p teglar juft teg hisoblanib, ochiluvchi (`<i>`) va unga mos yopiluvchi (`</i>`) teglardan iborat bo'ladi. Yopiluvchi tegi ochiluvchi teg oldidan (`"/"`) belgisini qo'yish bilan farqlanadi. Shuningdek, yopish tegi mavjud bo'lmagan teglar ham mavjud, masalan, yangi satrga o'tish tegi `<br>`.

Ba'zi teglar parametrlarga ega bo'lishi mumkin (ba'zan ular atributlar deb ataladi). Parametr = "qiymat" formatidagi bo'sh joydan keyin teg nomidan keyin ko'rsatiladi.



Agar bir nechta parametrlar mavjud bo'lsa, ular bo'shliq bilan ajratiladi.

**Masalan:**

```
<meta http-equiv"Content-Type" contentq"text/html; charsetutf-8">
```

Ushbu misolda <meta> tegining http-equiv parametri Content-Type ga o'rnatiladi va content parametri text/html ga o'rnatiladi; charsetutf-8.

Teglar bir-birining ichiga ya'ni ichma-ich joylashishi mumkin.

**Masalan:**

```
<p><i> Matn </i></p>
```

Teglar joylashtirilganda ularni yopish tartibiga rioya qilinishi kerak.

Misol uchun, ushbu kodni xato hisoblanadi:

```
<p><i> Matn </p></i>
```



**HTMLda teglar va parametrlarning nomlari katta va kichik harflarda yozilishi mumkin. XHTML tilida faqat kichik harflar bilan yozilishi kerak.**

HTMLda tayyorlangan hujjatlarni web-brauzer deb nomlangan maxsus dasturlar yordamida ko'rish mumkin. Web-brauzerlar hujjatning strukturasi tavsiflaydigan manba kodiga asoslanib hujjatlarni ko'rsatib beradi. Web-brauzer oynasida ko'rsatilgan HTML hujjatining talqini natijasiga web-sahifa deb ataladi. HTML hujjatidan farqli o'laroq, web-sahifa faqat matnni emas, balki grafiklarni, videolarni, ovozlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Shuningdek, web-sahifada birdaniga bir necha HTML-hujjatlar natijasini ko'rsatishi ham mumkin. HTML formatidagi hujjatlar kengaytmasi **html** yoki **htm** ko'rinishida bo'ladi.

**Hujjat tuzilishi.** Birinchi HTML-hujjatimizni yaratib ko'ramiz. Uni yaratish uchun ixtiyoriy matn muharriridan foydalanish mumkin. Eng keng tarqalgan muharrir o'zidagi Bloknot hisoblanadi va unda 2.1.1-misol matnini kiritamiz.

### 2.1.1-misol. Birinchi HTML-hujjat

```
<!DOCTYPE HTML>
```

```
<html>
```

```
<head>
```

```
<title>Sahifa sarlavhasi</title>
```

```
<meta http-equiv"Content-Type" contentq"text/html; charsetq utf-8">
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
<p>
```

```
<strong>
```

```
Bu matn qalin shirifida ko'rinadi
```

```
</strong>
```


```
</p>
```

```
</body></html>
```

Biz kiritilgan matnni HTML formatida, masalan, 2.1.1-misol.html nomi bilan saqlaymiz. Buning uchun:

- **Fayl** menyusidan **Soxrani** kak tanlanadi.
- Ochilgan oynada **Imya fayla** satriga "test.html" kiritiladi
- **Tip fayla** ro'yxatidan **Vs faylo'** bandlanadi.
- **Soxrani** tugmasi bosiladi (Masalan, Rabochiy stol tanlanadi). Bloknot dasturini yopiladi.

Endi esa saqlangan test.html fayni ochish uchun, saqlangan faylni topib uni brauzerda ochilishini tanlash kerak masalan: **GoogleChromeda**



### 2.1.1-rasm

Har bir ketma-ketlik to'g'ri amalga oshirilsa, yaratilgan html fayl Web brauzer oynasida ko'rsatiladi va sarlavha satri "Sahifa sarlavhasi" ko'rinishida bo'ladi. Web-brauzer oynasidagi teglar ko'rsatilmaydi! Endi web-brauzer oynasida sarlavha satrini o'zgartirishni harakat qilib ko'ring. Buning uchun siz HTML formatida manba matnini ochishingiz kerak. Bu uchta usulda amalga oshirilishi mumkin:

- 1) View menyusida View HTML code ni tanlang;
- 2) Web brauzerining oynasida biron-bir joyda sichqonchani o'ng tugmasini bosing. Ochilgan kontekst menyusidan View HTML- kodini tanlang;
- 3) **Bloknot** yoki boshqa matn muharriri yordamida sahifa kodini o'z ichiga olgan faylni oching. Bu usul eng universaldir. Natijada hujjat matn tahrirlash uchun ochiladi. Endi ushbu qatorni o'zgartiramiz.

`<title> Sahifa sarlavhasi </ title>`

`<title> Mening birinchi web sahifam </ title>` ga o'zgartirib faylni saqlang

(**Fayl** menyusida, **Saqlash**).

Endi web-brauzeriga qaytib, web-sahifani yangilang. Buni quyidagi yo'llar bilan yangilashingiz mumkin:

- View menyusida Refresh bo'limini tanlang;
- kontekst menyusida Refresh bo'limini tanlang;
- **Pan li instrum ntov** bo'limidan **Obnovit** tugmasini bosing;
- klaviaturadan `<F5>` tugmasini bosing.

Shunday qilib, sarlavha satri "Mening birinchi web-sahifam" ga o'zgaradi. Hujjat kodidagi biror narsani o'zgartirib, amalga oshirilgan harakatlar natijalarini qaytadan takrorlab ko'ring. Algoritm quyidagicha: manba kodini oching, sozlashni qiling, saqlang va web-sahifani yangilang.


Hozirgi kunda SublimeText 3.0 dasturi web hujjatlarni taxrirlasahning juda yaxshi dasturlaridan biridir. U HTML, JavaScript, PHP va shu kabi sintaksislarni yoritib boradi. SublimeText 3.0 dasturini uning sahifasi ([https:// www. Sublime-text.com/](https://www.Sublime-text.com/)) dan bepul yuklab olishingiz mumkin. Uni o'rnatish juda oddiy va sharhlarga ehtiyoj yo'q.

SublimeText 3.0 dasturini ishga tushiring.



2.1.2-rasm

2.1.1-misolda ko'rsatilgan kodni yozing va fayl menyusidan **Save (Ctrl+Q)**ni tanlang. Ochilgan oynada **Fayl** nomi satriga **"2.1.1-misol.html"** kiriting. Papkani tanlang, masalan, **Ish stoli** va **Save** ni bosing. Ko'rish uchun fayl web-brauzer yordamida oching.



2.1.3-rasm

Faylni tahrirlash uchun **Fayl** menyusida **Open File** ni tanlang. E'tibor ber SublimeText 3.0 o'rniga siz NotePadQQ, PHPStorm, WebStorm, Aptana Stu yoki NetBeans tahrirlovchilaridan foydalanishingiz ham mumkin.

Shunday qilib, biz HTML-hujjatlarni yaratish texnologiyasini o'rga chiqdik, hujjat kodini saqlash, namoyish qilish va o'zgartirishni o'rgandik. 2. misolda har qanday HTML hujjatining umumiy strukturasi keltirilgan.



### 2.1.2-misol.HTML hujjatning tuzilishi

```
<!DOCTYPE html><!--Hujjat formati deklaratsiyasi-->
<html>
<head>
```

```

<!-- Hujjat haqida texnik ma'lumotlar-->
</head>
<body>
<!-- Hujjatning asosiy qismi -->
</body>
</html>

```

<!DOCTYPE> tegi web-brauzer uchun fayl formatini belgilab beradi va uning barcha ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi.

HTML hujjatining barcha matnlari <html>va</html> teglari orasida joylashgan bo'ladi. HTML hujjat ikki qismdan iborat: bosh (<head>va</head> teglari orasidagi) va tarkib qismlari (<body> va </body> teglari orasidagi).

### Nazorat uchun savollar

1. HTML. (Hyper Text Markup Language) till qanday til?
2. HTML ning asosiy qoidalari nimalardan iborat?
3. HTML-fayl deganda nima tushuniladi?
4. HTML-faylning kengayishi qanday?
5. Teglari, deb nimaga aytiladi?
6. HTML – hujjat strukturasi nimadan iborat?
7. Sarlavha va abzaslarni formatlashtirish qanday bajariladi?

## 2.2-§. HEAD bo'llimi. Hujjatning texnik tavsifi



### O'quv modullari

head, body, hujjatning texnik tavsifi, teg hususiyatlari

HEAD bo'limining asosiy ma'lumotlari - nom, uning tavsifi va qidiruv tizimi uchun kalit so'zlar, muallifga tegishli ma'lumotlar va sahifa yaratish vaqti, sahifaning asosiy manzili, kodlash va h.k hisoblanadi.

HEAD bo'limidagi yagona majburiy teg <title> tegi ishlatiladi.<title> va </title> o'rtasidagi matn web-brauzerining yuqori qismida ko'rsatiladi. Sarlavha uzunligi 60 belgidan oshmasligi kerak, aks holda web-brauzerining boshiga to'liq mos kelmaydi:

```
<title> Sarlavha satri</title>
```

**Maslahat.** Ko'pincha <title> va </title> belgilar orasidagi matn ushbu sahifaga havola matn sifatida qidiruv tizimi natijalarda ishlatiladi. Shu sababli, sarlavha sahifaning mazmunini iloji boricha to'liq tavsiflashi kerak. "Bosh sahifa", "Birinci sahifa" kabi narsalarni yozmang.

Bitta <meta> tegidan foydalanib, qidiruv tizimi uchun sahifa tarkibi va kalit so'zlarni tavsifi belgilashingiz mumkin. Agar <title> va </title> belgilaridagi matn



bu sahifa uchun havola matni sifatida ishlatilsa, <meta> tegidagi tavsif quyidagi havola bilan ko'rsatiladi:

- `<meta name = "description" content = "Sahifaning mazmuni tavsifi">`
  - `<meta name = "keywords" content = "Vergulli ajratilgan kalit so'zlar ro'yxati">`
- Bundan tashqari, turli tillarda bir nechta tavsiflarni ham ko'rsatishingiz mumkin. Buning uchun **lang** parametrda ishlatiladigan tilni tanlang:
- ▶ `<meta name = "description" lang = "uz" content = "Sahifa tarkibi tavsifi">`
  - ▶ `<meta name = "description" lang = "en" content = "Description">`
  - ▶ `<meta name = "keywords" lang = "uz" content = "Kalit so'zlar vergul bilan ajratib yoziladi">`
  - ▶ `<meta name = "keywords" lang = "eng" content = "keywords">`

Bundan tashqari, <meta> taglari web-sahifani qidirish mashinalari tomonidan qidirishda indeksasiyalashga ruxsat berish yoki taqiqlashga imkon beradi:

- `<meta name = "robots" content = "<index>, <havola orqali o'tish">`
- content** parametrlari quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:
- ▶ **index** – qidiruv tizimiga ruxsat;
  - ▶ **noindex** – qidiruv tizimiga taqiq;
  - ▶ **follow** – bu web-sahifaga havola bo'yicha o'tishga ruxsat;
  - ▶ **nofollow** – bu web-sahifaga havola bo'yicha o'tishga taqiq;
  - ▶ **all** – index va follow birgalikda yoqilgan. Odatiy holda shunday bo'ladi;
  - ▶ **none** – noindex va nofollow birgalikda.

Bir qator misollar keltiramiz.

Indeksasiyalanish va havola orqali o'tishga ruxsat beriladi:

`<meta name = "robots" content = "index, follow">`

Indeksasiyalanish va havola orqali o'tish taqiqlanadi:

`<meta name = "robots" content = "index, nofollow">`

Indeksasiyalanish va havola orqali o'tishga ruxsat berilmaydi:

`<meta name = "robots" content = "noindex, nofollow">`

Bundan tashqari, <meta> yorlig'ini ishlatib, matnni kodlash turini ham tanlash mumkin:

`<meta http-equiv = "Content-Type" content = "text / html; charset = utf-8">`

Belgilangan vaqtdan keyin sahifani avtomatik ravishda qayta yuklash uchun

<meta> tegining **refresh** xususiyatidan foydalanish mumkin:

`<meta http-equiv = "refresh" content = "30">`

Ushbu misolda sahifa 30 soniyadan keyin qayta yuklanadi. Agar siz darhol boshqa bir sahifaga o'tishini hohlasangiz, url parametridagi URLni belgilashingiz mumkin:

`<meta http-equiv = "refresh" content = "0; url = http://nammqi.uz /">`

**Izoh.** **HEAD** bo'limida yana **<base>**, **<link>**, **<script>**, **<style>** kabi va boshqa teglardan foydalanish mumkin. Ushbu teglarni keyinroq ko'rib chiqamiz.

**BODY bo'limi.** **Hujjatning asosiy qisml.** Ushbu bo'lim hujjatning barcha mazmunini o'z ichiga oladi.

Strict formatda <body> tegining tarkibi blok elementlari ichida bo'lishi kerak, masalan, <p>, <div> yoki boshqalar:

```
<body>
<p>Hujjat matni</p>
<div>Hujjat matni</div>
</body>
```


<body> tegi quyidagi parametrlarga ega:

- **bgcolor** – web-sahifaning fon rangini belgilaydi. Fon rangi odatdagi rejimda oq bo'ladi. Rang olti honali o'n oltilik sanoq sistemasidagi raqamlar bo'yicha aniqlanadi. Har bir komponentning rangi (qizil, yashil va ko'k) uchun, qiymat 00 dan FF oralig'ida o'rnatiladi. Bu qiymatlar, avval "#" belgisi qo'shiladi, masalan, #FF0000 qiymati qizil rangga mos keladi, # 00FF00 to'q yashil rangga va #FF00FF – binafsha rangga (qizil va ko'k aralashmasi) mos keladi;
- **background** – rasm URL manzilini ko'rsatib, hujjat uchun fon berish imkonini beradi;
- **alink** – faol havolaning rangini belgilaydi;
- **link** – o'qilmagan havola rangini belgilaydi;
- **vlink** – allaqachon ko'rilgan havolaning rangini belgilaydi;
- **text** – matn rangini belgilaydi.

Masalan, <body> tegi quyidagicha bo'lishi mumkin:

## 2.2.1-misol. BODY tegining hususiyati

```
<!DOCTYPE HTML>
<html><head>
<title> Sahifa sarlavhasi </ title>
<meta http-equiv = "Content-Type" content = "text / html; charset = utf-8">
</ head>
<body alink = "# FF0000" link = "# 000000" vlink = "# 000080" text = "#
000000">
Hujjat matni
</ body>
</ html>
```





## MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!

1. HTML hujjat tuzilishi qanday bo'lad?
2. Hujjatning texnik tavsifi nima?
3. HEAD bo'limida qanday teglar berilishi mumkin?
4. <meta> tegning qo'llanilishi haqida nimalarni bilasiz?
5. BODY bo'limining vazifasi nima?

### 2.3-§. Matnlarni bezash.



#### O'quv modullari

maxsus belgilar, matn shirifti, hujjatni formatlash, gorizontol to'g'ri chiziq, sarlavhalar, xat boshi

**Alohida belgilar bilan ishlash.** Yuqorida aytib o'tilganidek, HTML formatlash tili hisoblanadi. Shuning uchun, alohida harflar bilan bir qatorda matnning barcha qismlarini shakllantirish muhimdir. Biroq, teglarni o'rganishdan avval, maxsus belgilarni ko'rsatish imkoniyatini ko'rib chiqaylik. Bunday belgilar, masalan, (<) va (>) bu belgilaridan kamroq foydalaniladi, chunki bu belgilar HTML teglarini ifodalaydi. Maxsus belgilarni ko'rsatish uchun HTML ekvivalentlari ishlatiladi.

Masalan, "<title> va </title> teglari orasiga sarlavha matni kiritiladi" matnni chop etish uchun "&lt; title &gt; va & lt; /title &gt; teglari orasiga sarlavha matni kiritiladi" shaklida yozish talab etiladi.

Ushbu misolda biz kichik (<) belgisini &lt; bilan va katta (>) belgisini &gt; bilan almashtirdik.

Eng ko'p ishlatiladigan HTML ekvivalentlari ro'yxatini ko'rib chiqaylik:

- &lt; – kichik belgisi (<);
- &gt; – katta belgisi (>);
- &amp; – ampersand (&);
- &nbsp; – noaniq bo'shliq;
- &quot; – qo'shtirnoq ("");
- &copy; – mualliflik belgisi (©);
- &reg; – ro'yxatdan o'tgan tovar belgisi (®);
- &trade; – Savdo belgisi (™).

#### Matn qismlarini belgilash.

<b> tegi qalin harfli matnни ko'rsatadi:

<b> Qalin harfli matn </ b>

<b> tegi o'rniga mantiqiy formatlash yorlig'ini ishlatish yaxshiroq <strong>:

<strong> Qalin harfli matn </ strong>

*<i> tegi matni kursiv ko'rsatadi:*

*<i> Kursiv matn </i>*

*<i> tegi o'rniga <em> mantiqiy formatlash tegini ishlatish yaxshiroq:*

*<em> Kursiv matn </em>*

*<u> yorlig'i matnning ostiga chizilganligini ko'rsatadi:*

*<u> Ostiga chizilgan matn </u>*

*<strike> va <s> teglar matn o'rtasiga chizib qo'yadi:*

*<strike> O'rtasiga chizilgan matn </strike>*

*<s> O'rtasiga chizilgan matn </s>*

**Past va yuqori ko'rsatkichli matnlarni yaratish.** *<sub>* tegini matni satr sathidan pastga siljitadi va shrift hajmini kichraytiradi, pastki indeksni yaratish uchun ishlatiladi, masalan, H<sub>2</sub>O:

Suv formulasi – H<sub>2</sub>O

*<sup>* tegida matn satr sathidan yuqoriga o'tib, shrift o'lchamini kichraytiradi. Ushbu teg tez-tez ishlatiladi, masalan, m<sup>2</sup>:

Maydon o'lchov birligi – m<sup>2</sup>

**Matn shriftini belgilash.** *<font>* tegi shrift hajmini, turini va rangi bildiradi. U quyidagi parametrlarga ega:

➤ **face** – shrift turini belgilash uchun ishlatiladi:

Masalan:

*<font face = "Verdana"> Matn </font>*

Nafaqat bitta balki vergul bilan ajratilgan bir nechta turlarni ko'rsatish mumkin. Belgilangan nom shrift turiga mos kelishi kerak. Shrift foydalanuvchining kompyuterida topilmasa, shrift ishlatilmaydi;

➤ **size** – hajmi 1 dan 7 gacha bo'lgan o'lchamlarda shrift hajmini belgilaydi. Standart web-brauzer tomonidan ishlatiladigan o'lcham 3 ga teng. Shrift hajmi 1 dan 7 gacha bo'lgan raqam sifatida va tegishli birliklarda qancha birlikni oshirish kerak ("+" belgisi) yoki shtrix hajmini taglikga nisbatan kamaytirish ("- " belgisi) orqali ifodalanadi:

*<font size = "4"> Matn </font>*

*<font size = "+ 1"> Matn </font>*

*<font size = "- 1"> Matn </font>*

➤ **color** shrift rangini belgilash imkonini beradi. Ranglar bgcolor parametri bilan bir xil tarzda o'rnatiladi :

*<font color = "# FF0000"> Matn </font>*

Raqqamlar o'rniga siz rang nomlarini foydalanishingiz mumkin:

*<font color = "qizil"> matn </font>*

Eng keng tarqalgan ranglarning nomlarini yozamiz:

- black — #000000 — qora;
- white — #FFFFFF — oq;
- yellow — #FFFF00 — sariq;
- silver — #F0F0F0 — kumush;
- red — #FF0000 — qizil;



- green — #00F000 — yashil;
- gray — #F0F0F0 — kulrang;
- blue — #0000FF — kok;
- navy — #0000F0 — to'q ko'k;
- purple — #F000F0 — qirmizi.

Bundan tashqari, matnlarni formatlash uchun boshqa teglar ham mavjud:

Matnni kattaroq shrift bilan chop qilish uchun `<big>` tegi qo'llaniladi.

`<big> matn </big>` katta o'lchamda

Matnni kichikroq shrift bilan chop qilish uchun quyidagi juft tegni ishlatish uchun `<small>`:

`<small> matn </small>` kichik o'lchamda

**Hujjatlarni formatlash.** Oldingi qismda ko'rilgan deyarli barcha teglar hususiy formatlash belgilaridir. Qo'shimcha `<strong>` va `<em>` teglaridan ham foydalaniladi. Bu teglar mantiqiy matnni formatlash belgilari bo'lib, ular navbati bilan juda muhim va sodda qismlarga ajratish uchun ishlatiladi. Mantiqiy formatlash belgilaridan hujjatning tuzilishini ifodalash uchun foydalaniladi va turli xil web-brauzerlarda turlicha ko'rsatilishi mumkin. Keling, mantiqiy formatlashning asosiy teglarini ko'raylik:

- `<cite> ... </cite>` - atamalar va ularning nomlarini belgilashda foydalaniladi;
- `<code> ... </code>` - dastur kodining qismlarini belgilash uchun xizmat qiladi;
- `<acronym> ... </acronym>` - qisqartmalarni belgilash uchun ishlatiladi;
- `<kbd> ... </kbd>` - qismni foydalanuvchi tomonidan klavdlaturadan kirish sifatida belgilaydi;
- `<q> ... </q>` - qisqa matnlarni belgilash uchun ishlatiladi;
- `<samp> ... </samp>` - dastur tomonidan chiqarilgan natijani belgilash uchun ishlatiladi;
- `<var> ... </var>` - o'zgaruvchining nomlarini belgilaydi.

**Satrlarni ajratish.** Satrlarni ajratish uchun bitta `<br>` tegidan foydalaniladi.

HTML hujjatiga

satr1

satr2

satr3

matn yozilsa

Web-brauzer uni bir satrda aks ettiradi: "satr1satr2satr3". Satrlarni bir-birining tagida joylashgan bo'lishini ta'minlash uchun har bir satr oxirida `<br>` tegini qo'shishingiz kerak:

satr1<br> satr2 <br> satr3<br>

Matnni aks holda qanday yozilgan bo'lsa shu shaklda chiqarish uchun `<pre>` tegini ishlatish mumkin:

<pre>

satr1

satr2

satr3

</pre>

Ushbu misolda matnlar bir-birining tagiga joylashtiriladi.

**Horizantal to'g'richiziq.** Bitta `<hr>` tegi horizantal chizish imkonini beradi. `<hr>` tegi quyidagi parametrlarga ega:

❖ **size** - chiziq qalinligi: `<hr size = "5">`

❖ **width** - chiziq kengligi. Web-brauzer oynasining kengligi bilan bog'liq ravishda har ikkala pikselda va foizda qiymatni belgilashingiz mumkin:

`<hr size = "5" width = "100">` `<hr size = "5" width = "100%">`

❖ **align** – joylashishni tekislash. Parametr quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

▪ **center** – markazda joylashish

`<hr size = "2" width = "200" color = "red" align = "center">`

▪ **left** - chap burchak:

`<hr size = "2" width = "200" color = "red" align = "left">`

▪ **right**- o'ng tomonga tjoylashgan:

`<hr size = "2" width = "200" color = "red" align = "right">`

▪ **noshade** - bu parametrlarning mavjudligi chiziqning relefligini bekor qiladi:

`<hr size = "2" width = "200" align = "center" noshade >`

**Sarlavhalar.** Sarlavhalar oltita turli o'lchamlarga ega bo'lishi mumkin:

`<hx> Sarlavha </ hx>`

bu erda x - 1 dan 6 gacha bo'lgan son.

1-raqam bilan sarlavha eng katta:

`<h1> Eng katta nom </ h1>`

6-raqam bilan sarlavha eng kichik:

`<h6> eng kichik sarlavha </ h6>`

Asosiy parametr **align** web-brauzer oynasiga nisbatan sarlavha joylashishini belgilaydi. Quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

✓ **center** – markazga joylashtirish:

`<h1 align = "center"> 1-darajali sarlavha markazda</ h1>`

✓ **left** – chapga tekislash

`<h2 align = "left"> chapga tekislangan 2 darajali matn</ h2>`

✓ **right**- o'ng tekislash:

`<h6 align = "right"> o'ng tomonga tekislangan 6 darajali matn eng kichik sarlavha </h6>`

**Xat boshini ajratish.** `<p>` yorlig'i matnni alohida xat boshiga ajratishga imkon beradi. Web-brauzerlar paragraflarni bo'sh satr bilan bir-biridan ajratadi. Yakunlovchi `</ p>` tegi majburiy emas.

• **align** asosiy parametr hisoblanadi va u horizantal tekislanishni o'rnatadi. Parametr quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

○ **center** – markazdan tekislash;

`<p align = "center"> Matn markazga joylashadi</p>`

○ **left** - chap tomondan tekislash;

`<p align = "left"> Chap tomonga tekislangan matn </ p>`

○ **right** - o'ngdan tekislash:

`<p align = "right"> O'ng tomonga tekislangan matn </ p>`

- o **justify** - ikki tomon bo'yicha tekislash:

`<p align = "justify"> Ikki tomon bo'yicha tekislangan matn </p>`

**Izoh tegi.** `<! - va ->` teglaridagi matn web-brauzer tomonidan ko'rsatilmaydi va bu oraliqqa izoxlar kiritiladi.

`<! - Matn ->`



**Manba kodida izohlardan foydalanilsa kerakli qism tezda topladi. Bu ayniqsa boshlang'ich web dizaynerlari uchun juda muhimdir.**



## MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLARI

1. Web sahifada mahsus belgilar qanday aks ettiriladi?
2. Quyi va yuqori ko'rsatkichlarga matn yozish qanday amalga oshiriladi?
3. Web sahifada xat boshi qanday teg bilan ifodalanadi va uning qanday parametrlari bor?
4. Matnlarni formatlash qanday amalga oshiriladi?
5. Web sahifada sarlavhalar qanday ifoda etiladi?

### 2.4-§. Ro'yxatlar.



#### O'quv modullari

Ro'yxatlar, markerlangan ro'yxatlar, raqamlangan ro'yxatlar, aniqlangan ro'yxatlar

**Ro'yxat** - maxsus belgilar yoki raqamlar bilan belgilangan matnlarning tartiblangan bandlaridan iborat. Har bir variantni alohida ko'rib chiqaylik.

**Markerlangan ro'yxatlar.** Markerlangan ro'yxatlar `<ul>` va `</ul>` teglari orasida joylashadi. Ro'yxatdagi har bir elementdan oldin `<li>` tegini joylashtirishingiz kerak. Yakunlovchi `</li>` yorlig'i ixtiyoriy. 2.4.1- misolda ro'yxatning tuzilishi keltirilgan.

2.4.1-misol. Markerlangan ro'yxat

`<ul>`

`<li> Birinchi nuqta </li>`

`<li> Ikkinchi nuqta </li>`

`</ul>`

`<ul>` tegida ro'yxat satrlari joylashgan belgini ko'rsatishga imkon beruvchi **type** parametri bor. Bu parametr quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

- **disc** – ichi bo'yalagan doira shaklidagi belgilar:

`<ul type = "disc">`

`<li> Birinchi element </li>`

`<li> Ikkinchi element </li>`

`</ul>`

- circle – Ichi bo'sh shaklidagi belgilar:

`<ul type = "circle">`

`<li> Birinchi element </li>`

`<li> Ikkinchi element </li>`

`</ul>`

- square – To'ldirilgan kvadrat shakldagi belgilar:

`<ul type = "square">`

`<li> Birinchi element </li>`

`<li> Ikkinchi element </li>`

`</ul>`

**Raqamlangan ro'yxatlar.** Raqamlangan ro'yxat `<ol>` va `</ol>` tegi oralig'iga joylashtirilgan bo'ladi. Har bir ro'yxat elementidan oldin `<li>` tegini joylashtirishingiz kerak. Yakunlovchi `</li>` yorlig'i ixtiyoriydir.

2.4.2-misolda raqamlangan ro'yxatning tuzilishi ko'rsatiladi.



#### 2.4.2-misol. Raqamlangan ro'yxat

`<ol>`

`<li> Birinchi nuqta </li>`

`<li> Ikkinchi nuqta </li>`

`</ol>`

`<ol>` tegida ikkita parametr mavjud. Ularning birinchisi **type** - ro'yxatning satrlari harflar shaklida belgilash imkonini beradi.

Bu parametr quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

- A - satrlar katta harflar bilan belgilangan:

`<ol type = "A">`

`<li> Birinchi element </li>`

`<li> Ikkinchi element </li>`

`</ol>`

- a - satrlar kichik harflar bilan belgilangan:

`<ol type = "a">`

`<li> Birinchi element </li>`

`<li> Ikkinchi element </li>`

`</ol>`

- I - satrlar katta rim raqamlar bilan belgilangan:

`<ol type = "I">`

`<li> Birinchi element </li>`

`<li> Ikkinchi element </li>`

`</ol>`

- i - elementlar kichik rim raqamlar bilan belgilangan:



```
<ol type = "i">
<li> Birinchi element </li>
<li> Ikkinchi element </ li>
</ ol>
```

- I - satrlar raqamlar bilan belgilangan (standart):

```
<ol type = "1">
<li> Birinchi element </li>
<li> Ikkinchi element </ li>
</ ol>
```

<ol> – tegining ikkinchi parametri – start satrlarni raqamlash boshlanishini belgilaydi:

```
<ol type = "1" start = "5">
<li> Birinchi element </li>
<li> Ikkinchi element </ li>
</ol>
```

<li> tegi, shuningdek, ushbu ro'yxat elementining sonini o'zgartirishga imkon beruvchi value parametriga ega:

```
<ol type = "1">
<li> Birinchi element </ li>
<li value = "5"> Ikkinchi element</ li>
<li> Uchinchi elemenr </li>
</ol>
```

Ushbu misolda "Birinchi element" 1 raqami, "Ikkinchi element" - 5 raqami va "Uchinchi element" - 6 raqami bo'ladi.

**Aniqlangan ro'yxatlar.** Aniqlangan ro'yxatlar <dl> tegi yordamida tavsirlanadi. Qo'shimcha qo'shish uchun <dt> tegidan foydalaniladi va <dd> tegini qo'shish uchun. Yopiluvchi </ dt> va </ dd> belgilar ixtiyoriy. Aniqlangan ro'yxatlardan foydalanish 2.4.3- misolda keltirilgan.

2.4.3-misol. Aniqlangan ro'yxatlar

```
<!DOCTYPE HTML>
<html>
<head>
<title> Aniqlangan ro'yxatlar</title>
<meta http-equiv = "Content-Type" content = "text / html; charset = utf-8">
</head>
<body>
<dl>
<dt> HTML (HyperText belgilash tili) </ dt>
<dd>
```

Hujjatning formatlash tili kompyuter ekranida axborot ko'rinishini ifodalaydi

```
<dd>
<dt> CSS (Cascading Style Sheets)</dt><dd>Kaskadlangan stillar jadvali</dd>
```

</dl>

</body></html>


</dd>

<dt>CSS (Cascading Style Sheets) </dt><dd> uslublar jadvallarini chizish

</dd>

</dl>

</body></html>



2.4.3-rasm



### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!**

1. Ro'yxat nima?
2. Web sahifada raqmlangan ro'yxatlar qanday aks ettiriladi?
3. Web sahifada markerlangan ro'yxatlar qanday aks ettiriladi?
4. Web sahifada markerlangan ro'yxat markerlari sifatida ixtiyoriy belgini ishlatish mumkinmi?
5. Web sahifada aniqlangan ro'yxatlar qaysi HTML teglari yordamida hosil qilinadi?

## 2.5-§. Jadvallar.



### O'quv modullari

*jadval, jadval sarlavhasi, jadval qatorlari, jadval yacheykalari*

HTML hujjatida jadvallar quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- ma'lumotlarni taqdim etish vositasi sifatida;
- sahifadagi matnni va grafikani to'g'ri joylashtirishingiz mumkin bo'lgan sahifa dizayni elementi sifatida.

### 2.5.1-misol. HTML jadvallarining tuzilishi

```
<table border = "1" width = "200">  
<caption> Jadval sarlavhasi </caption>  
<tbody><tr>  
<td align = "center"> 1 </td><td align = "center"> 2 </td>  
</tr>  
<tr>  
<td align = "center"> 3 </td><td align = "center"> 4 </td>  
</tr></tbody>  
</table>
```

The screenshot shows a web browser window with the address bar containing "D:\KITO6/misolalar/mis...". The main content area displays a table with the following structure:

1	2
3	4

2.5.1-rasm

### Hujjatga jadval joylashtirish

`<table>` tegi quyidagi parametrlarga ega:

- **border** - jadvalning chegara chiziqlarini namoyish qilishni boshqaradi, shuningdek jadval atrofida chegara qalinligini belgilaydi. Odatiy holda, jadval ko'rsatilmaydi:

```
<table><!-- Bu yerda jadval chiziqlai ko'rinmaydi -->
```

```
<table border = "0"><!-- Bu yerda jadval chiziqlai ko'rinmaydi-->
```

```
<table border = "5"><!-- Bu holda jadval chiziqlai ko'rinadi, jadval atrofidagi ramka qalinligi 5 piksel -->
```

- **cellspacing** - jadval ichidagi chiziqlarning qalinligini, qo'shni jadvallar chegaralari o'rtasidagi masofani bildiradi. Odatiy holda parametr 2 qiymatiga ega.

Agar parametr 0 ga o'rnatilgan bo'lsa, qo'shni jadval ramkalari bir qatorga birlashadi:

```
<table cellpadding="0">
```

➤ **cellpadding** - hujjat ramkasi va hujjat ichidagi ma'lumotlar orasidagi bo'shliqni belgilaydi:

```
<table cellpadding = "2">
```

Odatiy holda qiymati 1 ga o'rnatilgan bo'ladi;

➤ **width** - jadvalning kengligi pikseldagi yoki oynaning o'lchamiga nisbatan foizini bildiradi:

```
<table width = "200">
```

```
<table width = "100%">
```

➤ **align** jadval gorizontal joylashish joyini bildiradi. Quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

• left - jadval chapga moslangan va matn uning atrofida o'ng tomonga o'giriladi:

```
<table align = "left">
```

• right - jadval o'ng tomonga moslashgan va matnning chap tomondg o'giradi:

```
<table align = "o'ng">
```

• center - jadval markazlashtirilgan:

```
<table align = "center">
```

➤ **bgcolor** - jadvalning orqa fon rangini ko'rsatadi:

```
<table bgcolor = "silver">
```

```
<table bgcolor = "#C0C0C0">
```

### Jadval sarlavhasi

<caption> tegi jadval sarlavhasini belgilashga imkon beradi. U bitta align parametriga ega. Ushbu parametr quyidagi ikki qiymatdan birini olishi mumkin:

• top - sarlavha jadval yuqori qismida joylashgan:

```
<caption align = "top"> Jadval sarlavhasi </caption>
```

• bottom - sarlavha jadval pastki qismida joylashgan:

```
<caption align = "bottom"> jadval sarlavhasi </caption>
```

### Jadval qatorlari

Juft <tr> tegidan foydalanib, jadvalning satrlari tavsiflanadi. Quyidagi parametrlarga ega:

➤ **align** jadvalning ma'lumotlarini gorizontal ravishda joylashuvini ko'rsatadi.

Teg quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

• left - chap (standart):

```
<tr align = "left">
```

• right - o'ng:

```
<tr align = "o'ng">
```

• center - markaz:

```
<tr align = "center">
```

• justify - kenglik bo'yicha:



`<tr align = "justify">`

➤ **valign** - jadvalning yacheykalarida vertikal joylashuvini belgilaydi. Quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

• top - yuqorida:

`<tr valign = "top">`

• middle – o'rta:

`<tr valign = "middle">`

• bottom - pastki qismida:

`<tr valign = "bottom">`

• baseline – asos chiziq bo'yicha:

`<tr valign = "baseline">`

### Jadval yacheykalari

`<td>` tegidan foydalanib, jadval yacheykalari tavsiflanadi.

`<td>` tegi quyidagi parametrlarga ega:

- ✓ **align** va **valign** ma'lumotni yacheykaning joylashishning gorizonta va vertical o'rinlarini belgilaydi;
- ✓ **bgcolor** yacheykaning fon rangini bildiradi;
- ✓ **colspan** - gorizonta tarzda birlashtirilishi kerak bo'lgan yacheykalar sonini belgilaydi;
- ✓ **rowspan** -vertikal ravishda birlashtirilishi kerak bo'lgan yacheykalar sonini ko'rsatadi.

### 2.5.2.-misol. Yacheykalarni gorizonta tarzda birlashtirish

`<table border = "1" width = "200">`

`<caption> Jadvalning sarlavhasi </caption>`

`<body>`

`<tr><td align = "center" colspan = "2"> 1 va 2 birlashtirildi </td></tr>`

`<tr><td align = "center"> 3 </td><td align = "center"> 4 </td></tr>`

`</body>`

`</table>`

## Jadvalning sarlavhasi

1 va 2 birlashtirildi	
3	4

Shunday qilib, bu misolda biz jadval qatorini birlashtirdik

```
<td align = "center"> 1 </td> qatorni
```

```
<td align = "center" colspan = "2"> 1 va 3 birlashtirildi </td>
```

```
<td align = "center"> 3 </td> qatori o'chirildi
```

### 2.5.2-misol. Yacheykalarni vertikal ravishda birlashtirish

```
<table border = "1" width = "200">
```

```
<caption> Jadvalning sarlavhasi </caption>
```

```
<tbody>
```

```
<tr><td align = "center" rowspan = "2"> 1 va 3 birlashtirildi </td>
```

```
<td align = "center"> 2 </td></tr><tr><td align = "center"> 4 </td>
```

```
</tr></tbody></table>
```

Ushbu misolda biz jadval yacheykalarini birlashtirdik

### Jadvalning sarlavhasi

1 va 3 birlashtirildi	2
	4

### 2.5.2-rasm

```
<td align = "center"> 1 </td> haqida <td align = "center" rowspan = "2">
```

```
1 va 3 birlashtirildi </td> satr <td align = "center"> 3 </td> o'chirilgan.
```

```
<th> tegi sarlavhalar bo'lgan yacheykalarni belgilashga imkon beradi.
```

Bunday yacheykalarining tarkibi qalin va markazlashgan holda ko'rsatiladi. Boshqa tomondan, <th> tegi <td> tegiga o'xshaydi

### 2.5.3-misol. Jadval yacheykalarini belgilash

```
<html><head>
```

```
<title> Jadval uchun yacheykalarni tanlash </title>
```

```
<meta http-equiv = "Content-Type" content = "text/html;  
charsetutf-8">
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
<table border = "1" width = "500">
```

```
<caption> Jadval sarlavhasi </caption>
```

```
<thead><tr>
```

```

<th> Markasi </th>
<th> rangi </th><th>Chiqish yili </th></tr></thead>
<tbody><tr>
<td> Cobalt</td>
<td> Qora </td>
<td> 2017 </td>
</tr>
<tr>
<td> Damas</td><td> Oq </td><td> 2015</td></tr></tbody>
</table></body></html>

```

Jadval sarlavhasi

Markasi	rangi	Chiqish yili
Cobalt	Qora	2017
Damas	Oq	2015

2.5.3-rasm



### MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!

1. Web sahifada jadvallar qanday maqsadlarda ishlatiladi?
2. Jadval hosil qilish uchun qanday HTML teglari ishlatiladi?
3. Jadval satrlari qaysi teg bilan ifodalanadi?
4. Jadval yacheykalari qaysi teg bilan ifodalanadi?
5. Jadval yacheykalarini ustun bo'ylab birlashtirish qanday amalga oshiriladi?
6. Jadval chiziqlarini hususiyatlarini o'zgartirish qanday bajariladi?

## 2.6-§. Freymalar.



### O'quv modullari

freymalar, web sahifani qismlarga bo'linishi, freym strukturasi

Freymalar sizga web-brauzer oynasini bir nechta qismlarga ajratish imkonini beradi, ularning har biriga alohida HTML-hujjat o'rnatilishi mumkin.

### Web-brauzer oynasini bir nechta qismlarga bo'llish

Odatda, saytdagi barcha sahifalar uchun sarlavha va navigatsiya paneli bir xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va sahifalarning faqat asosiy tarkibi o'zgaradi. Kvadrat tuzilishidan foydalanib, sarlavhani bir oynada, ikkinchi navigatsiya paneli va uchinchi sahifadagi asosiy sahifa tarkibiga qo'yishingiz mumkin. Bu esa, birinchi va ikki oynani o'zgarmagan qoldirib, uchinchi mazmunini o'zgartirishga imkon beradi. Ushbu tuzilma bilan web-sahifani yaratishga harakat qilaylik. Buning uchun 5 ta fayl yarating:

- doc1.html (2.6.1-misol) - Web-sahifa sarlavhasi;
- doc2.html (2.6.2-misol) - navigatsiya paneli;
- test.html (2.6.3-misol) - ramka tuzilishini tasvirlaydigan HTML hujjat.
- bob 1.html - 1-bobning mazmuni;
- bob 2.html - 2-bobning mazmuni;

### 2.6.1-misol. Sarlavhani o'z ichiga olgan HTML hujjati (doc1.html)

```
<!DOCTYPE HTML>
<html><head>
<title> Sarlavha </title>
<meta http-equiv = "Content-Type" content = "text / html; charset = utf-8">
</head>
<body>
<h1> Header </h1>
</body>
</html>
```

Sarlavha

# Header

2.6.1-rasm

### 2.6.2-misol. Sarlavha sathini o'z ichiga olgan HTML hujjati (doc2.html)

```
<html>
<head>
```



```

<title> Navigatsiya paneli </title>
</head>
<body>
<h3> Mundarija </h3>
<ul>
<li><a href = "chapter1.html" target = "chapter"> 1-bob </a></li>
<li><a href = "chapter2.html" target = "chapter"> 2-bob </a></li>
</ul>
</body></html>

```

## Mundarija

- 1-bob
- 2-bob

2.6.2-rasm

**2.6.3-misol. Ramka tuzilishini tavsiflovchi HTML hujjati (test.html)**

```

<!DOCTYPE HTML>
<html>
<head>
<title> Ramkalaridan foydalanish </title>
<meta http-equiv = "Content-Type" content = "text/html; charset=utf-8"></head>
<frameset rows = "100, *">
<frame src = "doc1.html" scrolling = "no">
<frameset cols = "20%, 80%">
<frame src = "doc2.html">
<frame src = "chapter1.html" name = "bo'lim">
</frameset></noframes>
<p> Sizning web-brauzeringiz hech qanday ramka ko'rsatmaydi
</p></noframes>
</frameset>
</html>

```

## Header

### Mundarija

- 1-bob
- 2-bob



### 2.6.3-rasm

Yaratilgan barcha fayllar bitta papkada saqlanadi. So'ngra web-brauzerida test.html faylini oching. Shunday qilib, oyna uchta to'rtburchak joylarga bo'linadi. Oynaning pastki qismida navigatsiya paneli (chapda) va hujjatning asosiy qismi (o'ngda) mavjud. Alohida harakat qilayotganingizda, asosiy qismning tarkibi o'zgaradi va qolganlari o'zgarishsiz qoladi.

Keling, sarlavhaning fon rangini o'zgartiraylik. Buning uchun web-sahifaning fon kodini yozishingiz kerak.

Bilamizki, oddiy web-saytning hujjat kodini uchta usulda ko'rishingiz mumkin:

- View menyusida View HTML code ni bosing;
- Web brauzerining oynasida biron-bir joyni o'ng tugmasini bosing. Olingan kontekst menyusida View HTML-kod ni;
- Notepad yoki boshqa matn muharriridan foydalanib, manba kodini o'z ichiga olgan faylni oching.

Hujjatda ramkalar bo'lsa, dastlabki ikkita harakatlar natijalari boshqacha bo'ladi. Birinchi usul HTML-hujjatning har biri uchun hujjat kodi emas, balki faqat web-sahifaning tuzilishi uchun kodni ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, test.html faylining manba kodi ko'rsatiladi. Ikkinchidan, faqat bitta HTML hujjatning kodini ko'rsatish imkonini beradi va HTML hujjat kodi ko'rsatiladi.

Bizning holatda (doc1.html) manba kodini ko'rsatish uchun, sarlavhani o'z ichiga olgan maydonni o'ng tugmasini bosing. Ko'rsatilgan kontekst menyusida View HTML code ni tanlang.

Biz rangni almashtiring

```
<body>
```

```
<body style = "background-color: #C0C0C0"> faylni saqlang va web-sahifani yangilang. Natijada, sarlavhaning fon rangi oqdan kul ranggacha o'zgaradi
```

### 2.6.2. Freymlarni o'z ichiga olgan HTML hujjatning tuzilishi

HTML hujjatning ramkalar bilan tuzilishi

```
<html>
```

```
<head>
```

```
<title> Sarlavha </title>
```

```
<meta http-equiv = "Content-Type" tarkibi = "text / html. charset = utf-8">
```

```

</head>
<frameset rows = "100, *">
<frame>
<frameset cols = "20%, 80%">
<frame>
<frame></frameset>
<noframes>
<p> Sizning web-brauzeringiz hech qanday ramka ko'rsatmaydi
</p></noframes></frameset></html>

```



2.6.2-rasm

<body> yorlig'i o'rniga, ramka tuzilishini tasvirlaydigan <frameset> yorlig'i ishlatiladi. Har bir alohida oyna <frame> yorlig'i bilan tavsiflanadi. Agar web-brauzer ramkalarni qo'llab-quvvatlamasa, matn <noframes> va </noframes> teglar orasida ko'rsatiladi. Ushbu teglarni batafsil ko'rib chiqing.

### **Freymli struktura tuzilish tavsifi**

<frameset> juftligi ramka tuzilishini tavsiflaydi. <frameset> va </frameset> teglar ichida <frameset> va </frameset> teglari bilan tasvirlangan faqat <frame> teglari yoki boshqa ramkalar majmui bo'lishi mumkin.

<frameset> yorlig'i quyidagi parametrlarga ega:

- satrlarni bo'laklarga bo'linishni ta'riflaydi:

```
<frameset rows = "100, *">
```

- Ustunlar ustunlarga bo'linishni anglatadi:

```
<frameset cols = "20%, 80%">
```

Qator va bo'g'inlar parametrlari qiymatlari kvadratlarning o'lchamidir. Kamida ikkita qiymat ko'rsatilishi kerak. Ro'yxatdagi barcha qiymatlar vergul bilan ajralib turadi. Olchamlari mutlaq birliklarda (piksellarda) yoki foizda ko'rsatilishi mumkin

## **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!**

1. Freym nima va u web sahifada qanday maqsadlarda ishlatiladi?
2. Freym hosil qilish tegini ayting?
3. Freym o'lchamlari qanday o'rnatiladi?

## 2.7-§. Grafika va multimedia. Giperishorat teglari.



### O'quv modullari

*grafika, multimedia, tovushli fayllar, giperishoratlar, ichki giperishoratlar, tashqi giperishoratlar*

### Grafika

Grafikalardan foydalanish web-sahifani vizuallik hususiyatini oshiradi. Rasmlar hujjatning mohiyatini va mazmunini yaxshiroq tushuntirishga yordam beradi.

Internetda quyidagi grafik formatlar qo'llaniladi:

- GIF - faqat 256 rangdan foydalanadi va oshkoralikni qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, GIF faylida animatsiyalar bo'lishi mumkin;
- JPEG - sifatni yo'qotish bilan suratlarni siqish usuli. Shaffoflik va animatsiya qo'llab-quvvatlanmaydi;
- PNG – sifatni saqlash bilan grafikni saqlash tartibi. Shaffoflikni qo'llab-quvvatlaydi. Almashtirish sifatida GIF formatidan foydalanilishi mumkin.



*Hujjatda grafik bilan ishlash web-sahifaning yuklab olish vaqtining ko'payishiga olib keladi. Shuning uchun grafikadan faqat oqilona va samarali foydalaning.*

### Web-sahifada tasvir

Tasvirlar `<img>` tegi yordamida web-sahifalarga kiritiladi. `<img>` tegi blok tegi ichida bo'lishi kerak, masalan, `<p>`, `<div>` yoki boshqa teglar. Quyidagi parametrlari mavjud:

- `src` - rasm faylining URL manzili:

```
<img src = "foto.gif" alt = "Yordam matni">
```

```
<img src = "http://www.mysite.uz/foto.gif" alt = "Yordam matni">
```

- `alt` - tasvirni yuklashdan oldin yoki grafik yopiq bo'lsa, sahifada ko'rsatiladigan matnli satr va rasm yuklanadi. Bunga qo'shimcha ravishda, sichqonchani tasvir ustida ko'chirsangiz, `alt` parametrda ko'rsatilgan matn asboblari panelidagi matn sifatida ko'rish mumkin:

```
<img src = "foto.gif" alt = "na'muna">
```

- `width` - tasvirning pikseldagi kengligi:

```
<img src = "foto.gif" width = "480" alt = "na'muna">
```

- `height` - tasvirning pikseldagi balandligi:

```
<img src = "foto.gif" width = "480" height = "60" alt = "Yordam">
```

### ESLATMA!

*Width va height parametrining qiymatlari tasvirning haqiqiy o'lchovlariga mos kelmasligi mumkin. Bunday holda, web-brauzer qayta masshtablashtirishni amalga oshiradi. Parametrlardan birining qiymati noto'g'ri bo'lsa, tasvir buziladi. Agar siz faqat bitta parametrni aniqlasangiz, ikkinchi qiymat*



haqiqiy tasvir o'lchamiga mutanosib birinchi qiymatga asosan avtomatik o'zgaradi.



*Har doim width va height parametrlarini aniqlashtiring, chunki bu web-brauzga web-sahifada rasmlarni yuklashdan oldin formatlash imkonini beradi. Aks holda, har bir rasmni yuklanganda web-sahifaning boshqa elementlarini siljishiga olib keladi.*

Quyidagi hususiyatlardan foydalanish mumkin:

➤ border - chegara qalinligi:

```
<img src = "foto.gif" border = "0" alt = "na'muna">
```

*top* - eng yuqori turgan element bilan bir chiziqqa joylashtirish;  
Bu qiymatlardan tashqari foizlar, piksellar ko'rinishida ham qiymat berish  
mumkin, mening fikrimcha piksellar orqali berganingiz qulayroq.

#### 3.4.4-misol. *vertical-align* xususiyati

```
<html>  
<head>  
<title> vertical-align xususiyati </title>  
</head>  
<body>  
<div styleq"font-size:30px;">  
<span styleq"vertical-align:sub">W</span>>eb  
<span styleq"vertical-align:middle;">D</span>>A  
<span style = "vertical-align:bottom;">S</span>  
<span styleq"vertical-align:10px">T</span>  
<span styleq"vertical-align:8px">U</span>  
<span styleq"vertical-align:6px">R</span>  
<span styleq"vertical-align:4px">L</span>  
<span styleq"vertical-align:2">A</span>  
<span styleq"vertical-align:middle">Sh</span>  
</div>  
</body>  
</html>
```

WebDas TURLA Sh

#### 3.4.5-rasm

#### Sloylar bilan ishlash

**Sloy** bu - qobiq, ya'ni alohida alohida blokdir. Agar 3 ta blok bo'lsa va ularning o'lchamlari bir-xil bo'lsa va siz ularni ustma-ust joylasangiz, eng quyi sloy(blok) ko'rinmaydi. Bunda, ustma-ust joylashuv bo'lib qoladi, lekin sloy mavjud bo'lib turaveradi.

Bloklarni joylashtirishda, biz aniq koordinatalarni beramiz, ko'p hollarda "x" va "y" nuqtalarni, yoki boshlang'ich holatdan surilishlarni (**position**). Mavzuda yana bir nuqta - "z" ni kiritib, har bir blokni ustma-ust joylashuvini aniqlashtiramiz. Sloylarni boshqarishni CSSning "z-index" xususiyati orqali amalga oshiramiz.

Blokning koordinatalari bilan birga ularning joylashuvini raqamlaymiz. Shu nomer orqali qaysi sloy eng yuqorida va qaysinisi eng quyida bo'lishini ko'rsatamiz. Misol ko'ramiz, dastlab bloklarni raqamlaymiz va natijani ko'ramiz.

### 3.4.5-misol. Sloylar bilan ishlash

```
<html>
<head>
<title>Sloy</title>
<style>
.sloy1 {
position: absolute;
left: 15px;
top: 15px;
height: 80px;
width: 70px;
border: 1px solid red;
background-color: orange;
}
.sloy2 {
position: absolute;
left: 30px;
top: 30px;
height: 80px;
width: 70px;
border: 1px solid red;
background-color: yellow;
}
.sloy3 {
position: absolute;
left: 50px;
top: 50px;
height: 80px;
width: 70px;
border: 1px solid red;
background-color: pink;
}
</style>
</head>
<body>
<div classq"sloy1">1</div>
<div classq"sloy2">2</div>
<div classq"sloy3">3</div>
```



```
</body>  
</html>
```



3.4.6-rasm


Kod natijasidan ko'rinib turibdiki, qaysi sloy oxirida yozilsa, o'sha blok eng yuqorida namoyon bo'ladi. Endi, yuqoridagi kodning CSS qismini o'zgartiramiz, ya'ni qo'shamiz va quyidagiga ega bo'lamiz.



### 3.4.6-misol. Z-index xususiyati

```
.sloy1 {  
  position: absolute;  
  left: 15px;  
  top: 15px;  
  height: 80px;  
  width: 70px;  
  border: 1px solid red;  
  background-color: orange;  
  z-index: 2;  
}  
.sloy2 {  
  position: absolute;  
  left: 30px;  
  top: 30px;  
  height: 80px;  
  width: 70px;  
  border: 1px solid red;  
  background-color: yellow;  
  z-index: 3;  
}  
.sloy3 {  
  position: absolute;  
  left: 50px;
```

```
top:50px;  
height:80px;  
width:70px;  
border:1px solid red;  
background-color:pink;  
z-index:1;
```



3.4.7-rasm

Qaysi blokning raqami (z-index:3) katta bo'lsa, o'sha blok eng yuqorida ko'rinadi, misolda ikkinchi blokning raqami eng katta.

Yaxshilab o'ylab ko'rilsa, bu xususiyat bilan ancha chiroyli ishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi, chiroyli sahifalar, soya shaklidagi rasmlar, tushuvchi menyular va hakazo.



### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!**

1. Bloklar sahifada qanday joylashtiriladi?
2. Clip qanday hususiyat?
3. Overflow qanday hususiyat?
4. Sloy nima?
5. Sloylarni joylashtirish tartibi qanday beriladi?

## 4-BOB. JAVASCRIPTDA DASTURLASH.

### 4.1-§. JavaScriptning asosiy tushunchalari: xossalar, metodlar, xodisalar.



#### O'quv modullari

xossalar, metoðlar, xodisalar, interaktiv, kod, script, izox, kontent, brauzer, hujjat, parameter, uslub.

JavaScript — bu Web-sahifalarning foydalanuvchi harakati, ta'siri bilan interaktiv tahrirlash imkonini beruvchi tildir.

Ko'rsatmalar izchil interpretatorlar bilan oddiy web-brauzerda bajariladi. Boshqa so'z bilan aytganda, dastur kodi HTML hujjatga tadbiiq qilinadi va kliyent tomonidan bajariladi. Dastur bajarilishi uchun endi web sahfa qayta yuklanishi kerak bo'lmaydi. Qandaydir hodisalarning paydo bo'lishi natijasida dastur bajariladi. Masalan, forma ma'lumotlarini jo'natish oldidan ularning ruxsat etilgan qiymatlari tekshirilishi mumkin, agar qiymatlar kutilganiga muvofiq bo'lmasa ma'lumot yuborish bekor qilinadi.

JavaScriptda birinchi dastur. Dasturlarni o'rganishda odatda "Hello, World" ("Salom, Dunyo") matnini chop etish bilan boshlanadi. Biz ham ananani buzmaymiz.

#### 4.1.1-misol. Birinchi dastur.

```
<!DOCTYPE HTML >
<html> <head>
<title>Birinchi dastur</title>
<meta http-equivq"Content-Type" contentq"text/html; charsetutf-8">
</head>
<body>
<script typeq"text/javascript">
<!--
document.write("Salom, Dunyo");
//-- >
</script> <noscript>
<p> Sizning brauzeringiz JavaScriptni qo'llamaydi </p> </noscript> </body>
</html>
```

file. D:\KITOQ. misollar

# Salom, Dunyo

Oddiy Bloknot da kodlarni yozamiz va HTML formatda test.html nomi bilan Ekranda quyidagi hollardan biri bo'lishi mumkin.

- Web-brauzer oynasida "Salom, Dunyo" yozuvi aks etadi — demak, hammasi joyida;
- Web-brauzer oynasida "Sizning brauzeringiz JavaScriptni qo'llamaydi" va Web-brauzerning «Zapustit skripto'?» so'rovini beradi — demak, Web-brauzerni sozlash va Podtverjdat zapusk skriptov bandi qarshisiga bayroqcha o'rnatiladi. Razreshit zapusk spriptov bandi qarshisida bayroq o'rnatilsa har safar, "Da" javobini berish kerak bo'ladi;
- Web-brauzer oynasida "Sizning brauzeringiz JavaScriptni qo'llamaydi" yozuvi aks etsa va Web-brauzer hech qanday savol bermasa — demak, Web-brauzera sozlanishida "Zapretit zapusk skriptov" bandi qarshisiga bayroq o'rnatilgan. Razreshit zapusk spriptov bandiga bayroq o'rnatish kerak;
- Web-brauzer oynasida hech qanday yozuv bo'lmasa — demak, dastur kodini yozishda xatoga yo'l qo'yilgan. JavaScriptda o'zgaruvhchilarni nomlashda kichik va katta harflar farqlanadi. Bundan tashqari, har bir harf, har bir qo'shtirnoq alohida ahamiyat kasb etadi. Bir harfda ham yanglishish butun dasturning ishlamasligiga yoki xato ishlashiga sabab bo'ladi.

Demak, biz birinchi muammoga duch keldik - ixtiyoriy foydalanuvchi web-brauzerni sozlash bo'limidan skriptni ishlatishni o'chirib qo'yishi mumkin. Biroq bu yagona muammo emas. Bunga sabab har bir web-brauzerda maxsus kod yozish kerak bo'ladi.



Bu kitobdagi barcha script misollar Microsoft Internet Explorer uchun yozilgan va ular boshqa brauzerlarda ishlamasligi mumkin. Buni yodda saqlash kerak.

Dastur HTML hujjatga <script> tegi yordamida tadbiiq qilinadi. Type parametridda MIME-tip text/javascript qiymati ko'rsatiladi. Bundan tashqari qaysi tildan foalanilayotgani language parametridda qaysi tildan foydalanilayotgani ko'rsatish kerak bo'ladi (bizni misolimizda — JavaScript). Mazkur parameter HTMLning oldingi versiyalarida ishlatilar edi, hozirda esa type parametri bilan bir paytda muvofiiqlik uchun foydalanialadi:

```
<script typeq"text/javascript" languageq"JavaScript">
```

Agar Web-brauzer JavaScript qo'llamasa yoki brauzer sozlanishida ta'qiqlangan bo'lsa, ko'rinadigan ma'lumot <noscript> va </noscript> teglari orasidagi yozuv chop etiladi.

```
<!--
```

```
document.write("Salom, Dunyo*");
```

```
//-->
```

Hozirgi vaqta barcha web brauzerlar <script> tegini taniydi. Shuning uchun izoh belgisiga hojat yuq.

`document.write("Salom, Dunyo");` - bu qator ifoda deb ataladi va uning bajarilishidan "Salom, Dunyo" matni web brauzer oynasida paydo bo'ladi. JavaScriptda har bir ifoda nuqta vergul bilan ajratiladi.

**Izoxlar.** JavaScript «/» belgisidan keyinga yozuvni bir qatorli izoh hisoblaydi: // bir qatorli izox

Bir qatorli izox ifodadan keyin yozilishi mumkin:

```
document.write("Hello, world"); // Bir qatorli izox
```

Bundan tashqari ko'p qatorli izohlar mavjud. U «/\*» belgisi bilan boshlanib "\*/" belgisi bilan tugaydi:

```
/*  
Ko'p qatorli izox  
*/
```

**alert() uslubi.** Bu ma'lumotlar oynasi va OK tugmasini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

#### 4.1.2-misol. alert() uslubi.

```
<!DOCTYPE HTML>  
<html> <head>  
<title> alert() uslubi</title>  
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8">  
</head>  
<body>  
<script type="text/javascript">  
<!--  
window.alert("Salom, Dunyo");  
//-->  
</script>  
</body>  
</html>
```

Оповещение JavaScript

Salom, Dunyo

OK

#### 4.1.2-rasm

Xabarni g'n belgisi yordamida qatorlarga bo'lish mumkin.

#### 4.1.3-misol. Xabarni qatorga bo'lish.

```
<!DOCTYPE HTML>
<html> <head>
<title> Xabarni qatorga bo'lish </title>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8">
</head>
<body>
<script type="text/javascript">
<!--
window.alert("Qator1g'nQator2g'nQator3g'nQator4");
//-->
</script>
</body>
</html>
```

Оповещение JavaScript

Qator1  
Qator2  
Qator3  
Qator4

OK

#### 4.1.3-rasm


*OK va Cancel tugmali xabar oynasi.* confirm() uslubi OK va Cancel tugmali xabar oynasini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

#### 4.1.4-misol. confirm() uslubi.

```
<!DOCTYPE HTML>
<html>
<head>
<title>confirm uslubi</title>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8">
</head>
<body>
<script type="text/javascript">
<!--if (window.confirm("tugmalardan birini bosing"))
{ window.alert("OK tugmasi bosildi");
}
else { window.alert("Cancel tugmasi bosildi");
}
//-->
```



```
</script>
</body>
</html>
```



#### 4.1.4-rasm

**OK va Cancel tugmali kiritish oynasi.** Prompt () uslubi kiritish maydoni va OK, Cancel tugmalari joylashlan xabar oynasini chaqirish uchun ishlatiladi. U agar Ok tugmasi bosilsa kiritilgan qiymatni o'zlashtiradi yoki Cancel bosilsa *null*ga o'zgaruvchi qiymati teng bo'ladi.



#### 4.1.5-misol. prompt() uslubi.

```
<!DOCTYPE HTML>
<html>
<head>
<title> prompt() uslubi </title>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8">
</head>
<body>
<script type="text/javascript">
<!--
var n = window.prompt("Ismingizni kiriting", "Bu qiymat ihtiyoriy");
if (nqqnull) {
    document.write("Siz Cancel ni bosdingiz");
}
else {
    document.write("Salom " = n);
}
//-->
</script>
</body>
```

<html>

JavaScript

File Edit KMT05 misol4.1.misol.htm

Salom Umidjon

OK

#### 4.1.5-rasm

### MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!

1. JavaScript qanday dasturlash tili?
2. JavaScript buyruqlari HTMLda qanday yoziladi?
3. JavaScript kodlarning ishlashi web brauzerga bog'liqmi?
4. Web brauzer JavaScript uchun qanday sozlanadi?
5. JavaScriptda dialogli xabar oynasi qanday chaqiriladi?
6. JavaScriptda dialogli kiritish oynasi qaysi uslub yordamida chaqiriladi?



### O'quv modullari

*o'zgaruvchi, ob'ekt, ifoda, deterministik, identifikasiya, vizualizatsiya, initsializatsiya, qiymat, ma'lumot tiplari, interpretator, funksiya, tip o'zgartirish*

**O'zgaruvchi** – dasturda ma'lumotlarni saqlashda foydalaniladigan xotiradan ajratilgan joy. Har bir o'zgaruvchi takrorlanmas nom bilan nomlanishi va bu nom lotin alifbosi xarflari, raqamlar, belgilarda iborat bo'lishi mumkin. Birinchi belgi ixtiyoriy harf, ixtiyoriy belgi bo'lishi mumkin. O'zgaruvchi nomida \$ belgisi ham ishtirok etishi mumkin. O'zgaruvchi nomlari sifatida JavaScript tilining kalit so'zlari (zaxiraga olingan so'zlar)dan foydalanib bo'lmaydi.

O'zgaruvchining to'g'ri nomlanishi:

*x, strName, y1, \_nam*

O'zgaruvchining noto'g'ri nomlanishi:

*ly, frame*

Oxirgi o'zgaruvchi nomi JavaScriptning kalit so'zi ishlatilgani uchun xato. O'zgaruvchi nomini ko'rsatishda katta va kichik haqqlarfarqlanishini hisobga olish kerak. Masalan, *strName* va *strname* — boshqa boshqa o'zgaruvchilar. Dasturda o'zgaruvchilar var kalit so'zi ordamida e'lon qilinadi. *var strName*:

Bir qatorda birdaniga bir nechta o'zgaruvchini vergul bilan ajratib e'lon qilish mumkin.

*var x, strName, y1, \_name, frame1;*

**Ma'lumot tipi va o'zgaruvchilarni e'lon qilish. O'zgaruvchilar tipini aniqlash.**

- ✓ *number* — butun son yoki suzuvchi vergulli son (kasr son);
- ✓ *string* — qator;
- ✓ *boolean* — ma'lumotlarning mantiqiy tipi. Uning qiymati true (chin) yoki false (yolg'on) bo'lishi mumkin;
- ✓ *function* — funksiya. JavaScript tilida qandaydir o'zgaruvchi qiymatini funksiya yordamida berish mumkin. Bunday nomlanish uchun funksiya aylanma qavssiz ko'rsatilishi kerak. Bundan tashqari, funksiya hususiyat va uslublar bo'lishi kerak;
- ✓ *object* — massivlar, ob'ektlar hamda **null** o'zgaruvchisi bilan beriladi.

Initsializatsiya jarayonida JavaScript o'zgaruvchilari avtomatik ravishda ajratadi. O'zgaruvchilar initsializatsiya nima? Bu o'zgaruvchiga boshlang'ich qiymatni o'zlashtirish amaliidir.

O'zgaruvchilarga qiymatni o'zlashtirish «q» operatori yordamida bajariladi.  
*Number1 = 7;* // *Number1* o'zgaruvchisi 7 qiymatini o'zlashtirmoqda;  
*Number2 = 7.8;* // *Number2* o'zgaruvchisi 7.8 suzuvchi vergulli qiymatini o'zlashtirmoqda;  
*String1 = "Qator";* // *String1* o'zgaruvchisi Qator o'zgaruvchisini o'zlashtirmoqda;  
*String2 = "Qator";* // *String2* o'zgaruvchisi Qator o'zgaruvchisini o'zlashtirmoqda;  
*Boolean1 = true;* // *Boolean1* o'zgaruvchisi mantiqi qiymat true ni o'zlashtirmoqda  
*Str1 = null;* // *Str1* o'zgaruvchisi hech qanday ma'lumotga ega emas, bo'shatilgan.

O'zgaruvchilarga to'g'ridan to'g'ri uning e'lonida qiymat berish mumkin:  
*var str1 = "Qator";*  
*var str2 = "Qator", Number1 = 7;*  
 // bir nechta o'zgaruvchilarning boshlang'ich qiymatlarni to'g'ridan-to'g'ri berish mumkin.

Agar dasturda o'zgaruvchilarga murojat amalga oshmasa, o'zgaruvchilar e'lonida qandaydir kichik xatolikka yo'l qo'yilgan. Agar o'zgaruvchi e'lon qilingan bo'lib, biroq u boshlang'ich qiymatni o'zlashtirmasa, qiymat *undefined*ga teng bo'lib qoladi.

*typeof* operatori o'zgaruvchilar tipini aniqlaydi. Quyidagi misolda huni ko'rib chiqamiz.

#### 4.2.1-misol. Ma'lumot tiplari.

```
<!DOCTYPE HTML>
<html>
<head>
<title> ma'lumot tiplari </title>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8">
</head>
<body>
<script type="text/javascript">
<!--
var Number1 = 7;
var Number2 = 7.8;
var String1 = "Qator";
var String2 = 'Qator';
var Boolean1 = true;
var Str1 = null, Str2;
document.write("Number1 - " + typeof (Number1) + "<br>");
document.write("Number2 - " + typeof (Number2) + "<br>");
```

```
document.write("String1 - " + typeof (String1) + "<br>");
document.write("String2 - " + typeof (String2) + "<br>"); // Qavsni
yoʻzmaslik ham mumkin
document.write("Boolean1 - " + typeof Boolean1 + "<br>");
document.write("Str1 - " + typeof Str1 + "<br>");
document.write("Str2 - " + typeof Str2);
//-- /
</script>
</body>
</html>
```

Number1 - number

Number2 - number

String1 - string

String2 - string

Boolean1 - boolean

Str1 - object

Str2 - undefined

#### 4.2.1-rasm

### Ma'lumotlar tipini o'zgartirish.



**Muammoli savol.** Agar songa qatorni qo'shish kerak bo'lsa nima bo'ladi?

```
var Str = "5";
var Number1 = 3;
var Str2 = Number1 + Str; // o'zgaruvchi qatordan iborat bo'ladi "35"
var Str3 = Str + Number1; // o'zgaruvchi qatordan iborat bo'ladi "53"
```

Bu holda interpretator ma'lumotlar tipining nomuvofiqligiga duch keladi va ma'lumotlar tipini bir hil holatga olib keladi, so'ng amal bajariladi. Bizning misolimizda Number1 o'zgaruvchisi, number (sonli) tipga tegishli edi, string (qator) tipiga o'zgartirilib, keyin qatorni qo'shish amali bajariladi.



**Muammoli savol.** Agar sondan qator ayrilsa, songa qator ko'paytirilsa, son qatorga bo'linsa nima bo'ladi?

```
var Number1 = 15;
var Str = "5";
var Str2 = Number1 - Str; // O'zgaruvchi sondan iborat bo'ladi 10
```



```
var Str3 = Number1 * Str; // O'zgaruvchi sondan iborat bo'ladi 75
```

```
var Str4 = Number1 / Str; // O'zgaruvchi sondan iborat bo'ladi 3
```

Shunday qilib interpretator qatorni songa aylantirishga urinadi va keyin ifodani hisoblaydi.

Qator va son qanday ketma-ketlikda ko'rsatilgani muhim emas:

```
var Str5 = Str * Number1; // O'zgaruvchi qiymati bari-bir 75
```

**Muammoli savol.** Qator o'zgaruvchisida bir dona harf qatnashsa nima bo'ladi?

```
var Number1 = 15;
```

```
var Str = "Qator";
```

```
var Str2 = Number1 - Str; // O'zgaruvchi qiymati NaN (Not a number)
```

Bu holda interpretator qatorni o'zgartira olmaydi va o'zgaruvchiga NaN(Not a number, son emas) o'zlashtiradi.

Bir tomondan interpretator ma'lumotlar tipini o'zgartirib yuborgani biz uchun yaxshi. Boshqa tomondan esa rejalashtirilmagan natijalarga erishib qolishimiz mumkin. Bu holda o'zimiz o'zgaruvchini o'zgartirilishi kerak bo'lgan tipga o'tkazishimiz zarur bo'ladi.

Ma'lumotlar tipini o'zgartirish uchun quyidagi funksiyalardan foydalaniladi:

✓ **parseInt(<qator>, [<asos>])** qatorni butun son tipiga o'zgartiradi. Qator son tipiga o'tgaziladi, agar ikkinchi majburiy bo'lmagan "Asos" o'zgaruvchisi yozilmasa sonni o'nlik sanoq sistemasida deb hisoblanadi. Agar qatorni sonda tasvirlab bo'lmasa NaN qiymati qaytariladi:

```
var Number1 = 15;
```

```
var Str = "5";
```

```
var Str5 = "FF";
```

```
var Str2 = Number1 - parseInt(Str); // O'zgaruvchi qiymati 10 ga teng
```

```
var Str3 = Number1 - parseInt(Str5, 16); // O'zgaruvchi qiymati -240 ga teng
```

```
var Str4 = Number1 + parseInt(Str); // O'zgaruvchi qiymati 20 ga teng
```

✓ **parseFloat(<qator>)** qatorni suzuvchi vergulli songa o'zgartiradi:

```
var Str = "5.2";
```

```
var Str2 = parseFloat(Str); // O'zgaruvchi qiymati 5.2 soniga teng
```

✓ **eval(Str)** qatorni huddi JavaScript dagi odatiy ifoda kabi hisoblaydi:

```
var Str = "3 + 5";
```

```
var Str2 = eval(Str); // O'zgaruvchining qiymati 8 ga teng
```

Quyidagi misolda ma'lumotlar tipini o'gartirishni yi'g'indini hisoblash misolida ko'rib chiqamiz.

#### 4.2.2-misol. Ikki son yig'indisini hisoblash.

```
<html>
<head>
  <meta charset="utf-8">
  <title>Tiplarni o'zgartirish</title>
</head>
<body>
<script type="text/javascript">
var Str1, Str2, Sum1, Sum2, msg;
Str1 = window.prompt("Ikki son yig'indisini hisoblash. Birinchi sonni kiriting", "");
if (Str1==null){
document.write("Siz Otmena tugmaisni bosdingiz:");
}
else {
Str2 = window.prompt("Ikki son yig'indisini hisoblash. Ikkinchi sonni kiriting", "");
if (Str2==null) {
document.write("Siz Otmena tugmaisni bosdingiz:");
}
else { Sum1 = Str1 + Str2;
msg = "Tip o'zarguncha: <br> " + Str1 + " va " + Str2 + " sonlarining yig'indisi
";
msg += Sum1 + " ga teng ";
Sum2 = parseInt(Str1) + parseInt(Str2);
msg += "<br> <br>Tip o'zargandan so'ng: <br>";
msg += Str1 + " va " + Str2 + " sonlarining yig'indisi " + Sum2 + " ga teng";
document.write(msg);
}
}
</script>
</body>
</html>
```

Agar web-brauzerning dialogli oynasiga 5 va 5 ni kiritsak quyidagicha natija ko'rsatiladi:

Tip o'zgaruvchi:

5 va 5 sonlarining yig'indisi 55 ga teng

Tip o'zgaruvchi so'ng:

5 va 5 sonlarining yig'indisi 10 ga teng

#### 4.2.2-rasm

Shunday qilib, dialogli oynadan kiritilgan qiymat qatordan iborat bo'ladi. Ikki son yig'indisini hisoblash uchun kiritilgan qiymatni kerakli tipga o'zgartirish kerak bo'ladi, aks holda biz oddiy qator ko'rinishidagi natijaga erishamiz.

**JavaScript operatorlari.** Operatorlar ma'lumotlar ustida biror amal bajarish uchun ishlatiladi. Masalan, o'zlashtirish operatori ma'lumotlarni o'zgaruvchiga o'zlashtirish, matematik operatorlar turli arifmetik amallar bajarish, qatorlarni ulash (konkatenasiya) operatorlari ikki qatorni bir qatorga birlashtirish uchun xizmat qiladi.

Operatorlar bir yoki ikki o'z o'zgaruvchi, o'zgarmas, yoki boshqa ifoda yoki tarkibiy operatorlarini ifoda qiluvchi qiymatlarni oladi va berilganlar bo'yicha bitta natijani qaytaradi. JavaScriptda qo'llaniladigan operatorlarni batafsilroq ko'rib chiqamiz.

#### Matematik operatorlar

- Q — qo'shish:  $Z = X + Y;$
- — ayirish:  $Z = X - Y;$
- \* — ko'paytirish:  $Z = X * Y;$
- / — bo'lish:  $Z = X / Y;$
- % — modulli bo'lish (qoldiq qismini qaytaradi):  $Z = X \% Y;$
- ++ — inkrementa operatori. O'zgaruvchi qiymatini 1 ga orttiradi:  
ZQQ; //  $Z = Z + 1$  ga teng kuchli;
- -- — dekrementa operatori. O'zgaruvchi qiymatini 1 ga kamaytiradi:  
Z--; //  $Z = Z - 1$  ga teng kuchli;

inkrementa va dekrementa operatorlari postfiks yoki prefiks shaklda ishlatilishi mumkin:

ZQQ; Z--; // Postfiks shakl  
QQZ; --Z; // Prefiks shakl

**Nima farqi bor?** Postfiks shaklda (zQQ) boshqa amal bajarilgach oshiriladi yoki kamaytiriladi, prefiks (QQZ) shaklda esa qiymat orttiriladi yoki kamaytiriladi keyin amal bajariladi. Farqini misol yordamida ko'rish mumkin.

### 4.2.3-misol. Postfiks va prefiks shakl

```
<!DOCTYPE HTML >
<html > <head >
<title> Postfiks va prefiks shakl </title>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8"> </head>
<body>
<script type="text/javascript">
var X, Y;
X = 5;
Y = X++; // Y = 5, X = 6
var msg;
msg = "<b>Postfiks shakl(Y = X++);</b> <b>Y = ";
msg += Y + "<br> X = " + X + "<br><br>";
X = 5;
Y = ++X; // Y = 6, X = 6
msg += "<b>Prefiks shakl(Y = ++X);</b> <b>Y = ";
msg += Y + "<br> X = " + X;
document.write(msg);
</script > </body > </html >
```

Postfiks → prefiks shakl

**Postfiks shakl(Y = X++):**

Y = 5

X = 6

**Prefiks shakl(Y = ++X):**

Y = 6

X = 6

### 4.2.3-rasm

#### O'zlashtirish operatorlari.

- = o'zgaruvchilarga qiymat o'zlashtirish:  $Z = 5$ ;
- + = ko'rsatilgan qiymatga oshirish:  $Z += 5$ ; //  $Z = Z + 5$  ga teng kuchli;
- - = ko'rsatilgan qiymatga kamaytirish:  $Z -= 5$ ; //  $Z = Z - 5$  ga teng kuchli;
- \* = ko'rsatilgan qiymatga ko'paytirish:  $Z *= 5$ ; //  $Z = Z * 5$  ga teng kuchli;
- / = ko'rsatilgan qiymatga bo'lish:  $Z /= 5$ ; //  $Z = Z / 5$  ga teng kuchli;
- % = ko'rsatilgan qiymatga qoldiqli bo'lish:  $Z \% = 5$ ; //  $Z = Z \% 5$  ga teng kuchli;

### ***Ikkilik operatorlari.***

- $\sim$  — ikkilik inversiya:  $Z = \sim X$ ;
- $\&$  — ikkilik VA:  $Z = X \& Y$ ;
- $|$  — Ikkilik YOKI:  $Z = X | Y$ ;
- $*$  — ikkilik istisnoli YOKI:  $Z = X * Y$ ;
- $\ll$  — chapga siljish – chapga bir yoki undan ortiq razryadga kichik razryadli nol bilan to'ldirilib siljish:  $Z = X \ll Y$ ;
- $\gg$  — o'nga siljish – o'nga katta razryadli nol bilan to'ldirilib siljish:  
 $Z = X \gg Y$ ;
- $\ggg$  — o'ngga razryadsiz siljish: (sdvig vpravo bez ucheta znaka — sdvig vpravo na odin ili bolee razryadov s zapolneniem starshix razryadov nulyami.)  
 $Z = X \ggg Y$ ;

### ***Qatorlarni qayta ishlash operatori.***

Q — qatorlarni birlashtirish operatori:

`var Str = " Qator1" + " Qator2";` // Str o'zgaruvchisi qiymati "Qator1 Qator2" ga teng bo'ladi

Ko'pincha o'zgaruvchi nomi bilan berilgan qatorlarni qayta ishlashga to'g'ri keladi. Agar,

`var X = " Qator1";`

`var Z = "Qiymat X ga teng";`

ko'rinishida yozilgan bo'lsa o'zgaruvchisining qiymati "Qiymat X ga teng" bo'ladi.

Agar u boshqacharoq

`var X = " Qator1";`

`var Z = "O'zgaruvchi qiymati " + X;` ko'rinishda yozilgan bo'lsa `Z` o'zgaruvchisining qiymati "O'zgaruvchi qiymati Qator1" ko'rinishda bo'ladi.

### ***4.2.4-misol. O'zgaruvchi qiymatini chop etish***

```
<!DOCTYPE HTML>
```

```
<html>
```

```
<head>
```

```
<title> O'zgaruvchi qiymatini chop etish </title>
```

```
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=windows-1251">
```

```
</head>
```

```
<body>
```



```

<script type="text/javascript">
var X = "Qator1";
window.alert("X o'zgaruvchisining qiymati 'X'"); // X o'zgaruvchisining qiymati
'X' chop etiladi
window.alert("X o'zgaruvchisining qiymati ' " + X + " '"); // "X
o'zgaruvchisining qiymati 'Qator1'" chop etiladi
</script>
</body>
</html>

```

Сообщение JavaScript

Сообщение JavaScript

Сообщение JavaScript

Сообщение JavaScript

Сообщение JavaScript

#### 4.2.4-rasm

#### **Operatorlarni bajarilishidagi ustunlik (bajarilish tartibi)**

Ushbu ifoda qanday ketma-ketlikda bajariladi?  $X = 5 = 10 * 3 / 2$ :

Bu operatorlarning bajarilish tartibiga bo'g'liq. Ifoda quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

Misolimizdagi ifodaning bajarilishi quyidagi ketma-ketlikda bo'ladi:

1. 10 soni 3 ga ko'patiriladi.
2. Olingan qimat 2 ga bo'linadi
3. Olingan natija 5 ga qo'shiladi.
4. Natijaviy qiymat X ga o'zlashtiriladi.

Qavslar qo'yilsa amal bajarilish tartibi o'zgaradi.

Quyidagi ifodada hisoblash tartibi boshqaja bo'ladi:

$X = (5 + 10) * 3 / 2$ ;

1. 5 soniga 10 soni qo'shiladi.
2. Olingan natija 3 ga ko'paytiriladi.
3. Olingan natija 2 ga bo'linadi.
4. Natija X o'zgaruvchisiga o'zlashtiriladi.

Operatorlarni bajarilishini kamayish tartibida ko'rib chiqamiz:

- ✓ !, ~, ++, -- — inkor, ikkilik inversiya, increment, decrement;
- ✓ \*, /, % — ko'paytirish, bo'lish, qoldiqli bo'lish;
- ✓ +, - — qo'shish va ayirish;
- ✓ <<, >>, >>> — ikkilik siljish;
- ✓ & — ikkilik VA;
- ✓ \* — ikkilik istisno YOKI;

- ✓ | — ikkilik YOKI;
- ✓ q, Qq, -q, \*q, /q, %q — o'zlashtirish.

**Maxsus belgilar** – bu alohida belgilar ketma-ketligi bo'lib, ular chop etilmayda va qandaydir oddiy amalni bajaradi.

g'n (qatorga bo'lish) belgisi yordamida dialogli onasidagi xabarni birnecha qatorida ko'rishimiz mumkin.

#### 4.2.5-misol. Maxsus belgilar

```

<!DOCTYPE HTML>
<html>
<head>
<title>Maxsus belgilar</title>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8">
</head>
<body>
<script type="text/javascript">
window.alert("Qator 1g'nQator 2g'ng'nQator 4");
</script>
</body>
</html>

```

Оповещение JavaScript

Qator 1  
Qator 2  
Qator 4

OK

#### 4.2.5-rasm

JavaScriptdagi maxsus belgilarni sanab o'tamiz:

- g' — keying qatorga o'tkazish;
- n — Enter tugmasini bosish (yangi qatordan);
- r — sahifaga o'tish;
- f — tabulyatsiya belgisi;
- t — apostrof;
- '

— qo'shtirnoq;

— teskari drob belgisi (obratnaya kosaya cherta).



### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!**

1. JavaScriptda qanday ma'lumot tiplari ishlatiladi?
2. JavaScriptda o'zgaruvchilar qanday e'lon qilinadi?
3. JavaScriptda o'zgaruvchilar tipi qanday aniqlanadi?
4. JavaScriptda o'zgaruvchilar tipi qanday o'zgartiriladi?
5. JavaScriptda amallarni bajarilish tartibi qanday?
6. JavaScriptda maxsus belgilar qanday ifodalanadi?

### 4.3-§. JavaScriptda jarayonlarini boshqarish elementlari (shartli va sikl operatorlari).



#### O'quv modullari

operator, kod, shart, Mantiqiy ifoda, true, false, parametr, ob'ekt klassifikatsiyasi, shartli operator, tamlash operatori, sikl operatori, taqqoslash operatorlari, identifikatsiya.

**Shartli operator. Kodlar blokining shartlar bo'yicha bajarilishi.** Shartli opearatorlar tegishli mantiqiy ifodaning qiymatiga ko'ra dasturning alohida bir qismini bajarilish yoki bajarilmasligini ta'minlaydi. Mantiqiy ifoda faqat ikkita qiymat qabul qiladi: true (rost) yoki false (yolg'on).

**Taqqoslash operatorlari.** Taqqoslash operatorlari mantiqiy ifodalarda qo'llaniladi. Ularni sanab o'tamiz:

- ✓ qq — teng;
- ✓ qqq — qat'iy teng;
- ✓ !q — teng emas;
- ✓ !qq — qat'iy teng emas;
- ✓ < — kichik;
- ✓ > — katta;
- ✓ <q — kichik yoki teng;
- ✓ >q — kata yoki teng.



**Muammoli savol.** qq (teng) va qqq (qat'iy teng) operatorlari orasida qanday farq bor?

qq operatoridan foydalanishda agar taqqoslanayotgan ifodalar turli tipda bo'lsa, interpretator ifodalarni bir tipga o'tkazishga harakat qiladi va ularni tekshiradi.

qqq operatori esa turli tiplar taqqoslanayotgan bo'lsa birdaniga false (yolg'on) qiymatni qaytaradi.

Bundan tashqari mantiqiy ifoda qiymati ! operatori yordamida quyidagi ko'rinishda inkorlanishi mumkin:

!(Var1 qq Var2)

Agar Var1 va Var2 o'zgaruvchilari teng bo'lsa, rost qiymat qaytariladi. Bu ifodadan oldin ! belgisi ishlatilsa ifoda qiymati yolg'on ga aylanadi.

Bir nechta mantiqiy ifodalarni quyidagi operatorlar yordamida birlashtirish mumkin:

✓ && — mantiqiy VA;

✓ || — mantiqiy YOKI.

(Var1 qq Var2) && (Var2 !q Var3)

(Var1 qq Var2) || (Var3 qq Var4)

Birinchi ifoda har ikki mantiqiy amal natijasi true bo'lsa true qiymat qabul qiladi, ikkinchisida esa hech bo'lmaganda bittasi true bo'lsa true bo'ladi.

|| operatori ko'pincha funksiyalarda zaruriy (majburiy) bo'lmagan parametrlarini yaratish uchun foydalaniladi. Agar birinchi ifoda true bo'lmasa, ikkinchi ifoda bajariladi:

```
function f_print(str) {  
  str || "Qiymat tanlanmagan";  
  window.alert(str);  
}
```

```
f_print();//"Qiymat tanlanmagan"
```

```
f_print("Qiymat ko'rsatilgan");//"Qiymat ko'rsatilgan"
```

**if...else shart operatori. Foydalanuvchi qiymat kiritishini tekshirish.** Yo'naltirish operatoridan biz oldinroq dialogli oynada tugmaning bosilishini tekshirish misolida ko'rib chiqdik. Bunda Ok tugmasining bosilishi true qiymatini qabul qilishini bilib olish mumkin ( Misol 3.17).

**4.3.1-misol. Muloqot oynasidan qaysi tugma bosilganini tekshirish.**

```
<!DOCTYPE HTML>
```

```
<html> <head>
```

```
<title>Xabar oynasi</title>
```

```
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8"> </head>
```

```
<body>
```

```
<script type="text/javascript">
```

```
if (window.confirm("Ixtiyoriy tugmani bosing")) { window.alert("OK tugmasi bosildi");
```

```
}
```

```
else {
```

```
  window.alert(" Cancel tugmasi bosildi ");
```

```
}
```

```
</script>
```

```
</body>
```

```
</html>
```



#### 4.3.1-rasm

Diqqat qiling, mantiqiy ifodada taqqoslash operatorlari ishlatilmayapti:

```
if (window.confirm("Ixtiyoriy tugmani bosing")) {
```

Ushbu yozub quyidagi yozuvga teng kuchli:

```
if (window.confirm("Ixtiyoriy tugmani bosing") qq true) {
```

Ifodaning tengligi true (rost) bo'lsa ixtiyoriy tanlanadi.

if...else operatori umumiy holda quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

```
if (<Mantiqiy ifoda>) {
```

<Operatorlar to'plami, agar mantiqiy ifoda rost qiymat qabul qilsa bajariladi >  
[else {<Operatorlar to'plami, agar mantiqiy ifoda yolg'on qiymat qabul qilsa bajariladi> }]

Quyidagi misolni ko'rib chiqamiz :

#### 4.3.2-misol. Sonni juftlikka tekshirish

```
<!DOCTYPE HTML >
```

```
<html> <head>
```

```
<title>Sonning juftligini tekshirish</title>
```

```
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=windows-1251">
```

```
</head> <body>
```

```
<script type="text/javascript">
```

```
var x = window.prompt("Sonni kiriting", "");
```

```
if (xqqnull) {
```

```
  document.write("Otmema tugmasini bosdingiz");
```

```
}
```

```
else {
```

```
  if ((parseInt(x))%2qq0) {
```

```
    document.write("Juft son");
```

```
  }
```

```
  else {
```

```
    document.write("Toq son");
```

```
  }
```

```
}
```

```
</script>
```

```
</body> </html>
```



Toq son

OK

OK

## 4.3.2-rasm

Misoldan ko'rinib turibdiki, bir shartli operator boshqa shartli operatorning ichiga joylashishi mumkin. Bundan tashqari Bundan tashqari, agar shart ichida faqat bitta ifodadan tashkil topgan bo'lsa, figurali qavsni ko'rsatish shart emas:

```
if ((parseInt(x))%2==0) document.write("Juft son"); else document.write("Toq son");
```

bundan tashqari else umuman ishtirok etmasligi ham mumkin:

```
if ((parseInt(x))%2==0) document.write("Juft son");
```

**? operatori. Juftlikka tekshirish.**

? operatori umumiy ko'rinishda quyidagicha yoziladi:

<O'zgaruvchi> = (<Mantiqiy ifoda>) ? <agar Rost> : <agar Yolg'on>;

Juftlikka tekshirish dasturi (Misol 3.18)ni qayata tuzamiz va bunda if...else o'rniga ? operatoridan foydalanamiz.

**4.3.3-misol. ? operatori yordamida sonni juftlikka tekshirish**

```
<!DOCTYPE HTML>
<html> <head>
<title>Juftlikka tekshirish</title>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8">
</head> <body>
<script type="text/javascript">
var x = window.prompt("Sonni kiriting", "");
if (x==null) {
document.write(" Siz Otmena ni bosdingiz");
}
else {
var msg = ((parseInt(x))%2==0) ? "Juft son" : "Toq son";
document.write(msg);
}
</script>
</body>
</html>
```

Toq son

## 4.3.3-rasm

**switch tanlash operatori.** switch tanlash operatori quyidagi shaklda yoziladi:

```
switch (<O'zgaruvchi yoki ifoda>) {
case <Qiymat 1>:<Ifoda 1>; break;
case <Qiymat 2>:< Ifoda 2>;break;
...
case <Qiymat n>:< Ifoda n>;break;
default: < Qiymat nQ1 >;
}
```

Oldingi dasturimizni if\_else va ? o'rniga switch operatoridan foydalanib qayata yozamiz (4.3.4-misol).

## 4.3.4-misol. switch operatoridabn foydalanib sonni jutlikka tekshirish

```
<!DOCTYPE HTML >
<html> <head>
<title>Sonni jutlikka tekshirish</title>
<meta http-equivq"Content-Type" contentq"text/html; charsetqutf-8">
</head>
<body>
<script typeq"text/javascript">
var x = window.prompt("Sonni kiriting". "");
if (xqqnull) {
document.write("Siz Otmena ni bosdingiz ");
}
else {
switch ((parseInt(x))%2)
{ case 0:document.write("Juft son "); break;
case 1: document.write("Toq son"); break;
default:
document.write("Kiritilgan qiymat sonli emas");
}
}
```

```
</script>
</body>
</html>
```

JavaScript

JavaScript

OK

OK

OK

Juft son

JavaScript

JavaScript

OK

OK

OK

Kiritilgan qiymat sonli emas

#### 4.3.4-rasm

Shunday qilib, **switch** operatori yana bir qo'shimcha tekshirishga imkon yaratdi. Agar foydalanuvchi son o'rniga qatorni kiritib yuborishi mumkin. Oldingi misolimizda bu tekshirishni bajarmagan edik va tasodifan qator kiritib yuborilsa natija "Toq son" ko'rinishida chiqar edi. Bu esa xato.

Switch operatoriga qaytamiz. Switch operatorida mantiqiy ifoda o'rniga o'zgaruvchi yoki arifmetik ifoda ishtirok etadi. O'zgaruvchi yoki ifodaning qiymatiga mos case bloklaridan biri bajariladi. Agar qiymat hech bir case bloke qiymatiga mos bo'lmasa, default bloke bajariladi. Break operatori switch tanlash operatoridan chiqib ketishni ta'minlaydi. Bu nima uchun kerak? case blokining oxirida break ko'rsatilmasa, keyingi case bloke ham bajariladi. Agar misolimizdagi barcha break operatorlarini o'chirib tashlasak, web brauzerda quyidagi natijani ko'ramiz (tashqaridan juft son kiritilsa):

*Juft son Toq son Kiritilgan qiymat sonli emas*

Demak, break operatori albatta har bir case blokining oxirida ko'rsatilishi kerak.

**Sikllar. Kodlar blokinig ko'p marta bajarilishi.** Aytaylik, 1 dan 100 gacha natular sonlarni ketma-ket chop etish kerak bo'lsin. Buning uchun bilishimiz bo'yicha quyidagi kodni 100 marta yozib chiqishimiz kerak bo'ladi:

```
document.write("1<br>");
```

```
document.write("2 <br>");
```

```
... document.write("100<br>");
```

Buni sikl yordamida qisqa va oson hal qilish mumkin:  
for (var iql; i<101; document.write(iQ"<br>");

**for sikl operatori.** for sikl operatori ifodaning aniq belgilangan son miqdori bo'icha takrorlanib bajarilishi uchun ishlatiladi. Quyidagi formatda yoziladi:

```
for (<Boshlang'ich qiymat>; <Shart>; <Orttirish>)  
{ <Ifoda yoki operatorlar ketma-ketligi> }
```

Bunda:

- ✓ <Boshlang'ich qiymat> o'zgaruvchiga boshlang'ich qiymat beriladi;
- ✓ <Shart> mantiqiy ifodadan iborat bo'lib, agar uning qiymati true bo'lsa sikl ichidagi ifoda bajariladi;
- ✓ <Orttirish> o'zgaruvchiga qadam beriladi, ya'ni boshlang'ich qiymat o'zgaruvchisi ma'lum miqdordagi songa orttiriladi.

For sikli odatda quyidagicha bajariladi:

1. O'zgaruvchi-hisoblagich boshlang'ich qiymat oladi.
2. Shart tekshiriladi – agar u rost bo'lsa sikl ichidagi ifoda bajariladi, aksincha yolg'on bo'lsa sikldan chiqiladi.
3. O'zgaruvchi-hisoblagich <Orttirish> ko'rsatkichi bo'yicha o'zgaradi.
4. 2- qadamga o'tiladi.
5. Sikl <Shart> false bo'lmaguncha bajariladi. Agar shart false bo'lmasa sikl to'xtovsiz davom etadi.

<Orttirish> nafaqat o'suvchi balki kamayuvchi ham bo'lishi mumkin. 100 dan 1 gacha butun sonlarni chop etaylik:

```
For (var iql00; i>0; i--) document.write(iQ"<br>");
```

<Orttirish> nafaqat bir birlikka boshqa butun sonlarda oshirilib yoki kamaytirilishi mumkin. 1 dan 100 gacha juft sonlarni chop etaylik:

```
for (var iql2; i<101; iQq2) document.write(i + "<br>");
```

Ifoda <Shart> parametrada ko'rsatilgan har bir iteratsiya hisoblanadi.

Massiv elementlarini chop etishni ko'rib chiqaylik:

```
var Mass = [1, 2, 3];
```

```
for (var iql0; i<Mass.length; iQQ){
```

```
if (iqq0) {
```

```
Mass.push(4); // Yangi elementlarni qo'shamiz
```

```
Mass.push(5); // isbot uchun
```

```
}
```

```
document.write(Mass[i] + " "); } // Natija: 1 2 3 4 5
```

Bu misolda <Shart> parametrada length hususiyatini ko'rsatdik, sikl ichida esa massivga yangi element qo'shдик. Natijada yangi elementlar kiritilib massivning barcha elementlarini o'z ichiga olgan yangi massiv pado bo'ldi.

```
var Mass = [1, 2, 3];
for (var i=0, c=Mass.length; i<c; i++) {
  if (i==0) {
    Mass.push(4); // Yangi elementlarni qo'shamiz
    Mass.push(5); // isbot uchun
  }
  document.write(Mass[i] + " "); // Natija: 1 2 3
```

**While sikli.** While sikli unda ko'rsatilgan mantiqiy ifada rost bo'lsa bajariladi. Quyidagi umumiy formatda yoziladi:

```
<Boshlang'ich qiymat>;
while (<Shart>) {
  <ifoda>;
  <Orttirish>;
}
```

While sikli quyidagi tartibda bajariladi:

1. O'zgaruvchi – hisoblagich boshlang'ich qiymat o'zlashtiradi.
  2. Shart tekshiriladi – agar u rost bo'lsa, sikl ichi bajariladi, aksincha bo'lsa sikl tugatiladi.
  3. O'zgaruvchi – hisoblagich <Orttirish> ifodasida ko'rsatilgandek o'zgaradi.
  4. 2-bandga o'tiladi.
- while siklidan foydalanib 1 dan 100 gacha bo'lgan sonlarni chop etaylik (4.3.5-misol).

**4.3.5-misol. While sikli**

```
<!DOCTYPE html >
<html>
<body>
<script type = "text/javascript">
var i = 1;
while (i<101)
{
document.write(i + " ");
i++;
}
</script>
</body>
</html>
```

**DIQQAT!** Agar <Orttirish> ko'rsatilmasa sikl to'xtovsiz bajariladi. <Orttirish> faqat arifmetik ifoda bo'lishi shart emas. Masalan, ma'lumotlar bazasi bilan ishlashda <Orttirish> qiymati qatorlarnio o'zgartirish sifatida aniqlanishimunkin. Bunda <Boshlang'ish qiymat> ma'lumotlar bazasining birinchi qatori bo'ladi.

**Do while sikli.** do...while siklida ham mantiqi ifoda rost bo'lganda sikl bajariladi. While siklidan farqi unda shart sikl oxirida tekshiriladi. Demak, do...while sikli kamida bir marta albatta bajatriladi. Quyidagi umumiy formatda yoziladi:

```
<Boshlang'ish qiymat>;
do {
  <ifoda>; <Orttirish>; } while
(<shart>);
```

do...while sikli quyidagi tartibda bajariladi:

1. O'zgaruvchi – hisoblagich boshlang'ich qiymat o'zlashtiradi.
2. Sikl ichidagi ifoda bajariladi.
3. O'zgaruvchi – hisoblagich <Orttirish> ifodasida ko'rsatilgandek o'zgaradi.
4. Shart tekshiriladi – agar u rost bo'lsa 2-bandga o'tiladi, aksincha bo'lsa sikl tugatiladi.

do...while siklidan foydalanib 1 dan 100 gacha bo'lgan sonlarni chop etaylik.

**4.3.6-misol. Do...while sikli**

```
<!DOCTYPE html >
<html>
<body>
<script type="text/javascript">
var i = 1;
do {
document.write(i + " ");
i++;
} while (i<101);
</script>
</body>
</html>
```



**DIQQAT!** Agar <Orttirish> ko'rsatilmasa sikl to'xtovsiz bajariladi.

**Continue operatori.** Keyingi siklning navbatdagi iterasiyasiga o'tish. Continue operatori sikl ichidagi ifodalar oxirigacha bajarilmasdan navbatdagi iterasiyasiga o'tish imkonini beradi. Bu operator ixtiyoriy siklda qo'llanilishi mumkin.

1 dan 100 gacha bo'lgan va 5 dan 10 gacha bo'lgan sonlardan tashqari sonlarni chop etish.

#### 4.3.7-misol. continue operatoridan foydalanish

```
<!DOCTYPE html>
<html>
<body>
<script type="text/javascript">
for (var i=1; i<101;i++){
if (i>4 && i<11) continue;
document.write(i + " ");
}
</script>
</body>
</html>
```

1; 2; 3; 4; 11; 12; 13; 14; 15; 16; 17; 18; 19; 20; 21; 22; 23; 24; 25; 26; 27; 28; 29; 30; 31; 32; 33; 34; 35; 36; 37; 38;  
39; 40; 41; 42; 43; 44; 45; 46; 47; 48; 49; 50; 51; 52; 53; 54; 55; 56; 57; 58; 59; 60; 61; 62; 63; 64; 65; 66; 67; 68; 69;  
70; 71; 72; 73; 74; 75; 76; 77; 78; 79; 80; 81; 82; 83; 84; 85; 86; 87; 88; 89; 90; 91; 92; 93; 94; 95; 96; 97; 98; 99; 100

#### 4.3.7-rasm

**Break operatori.** Siklni to'xtatish. break operatori siklni zudlik bilan to'xtatish uchun ishlatiladi. 1 dan 100 gacha sonlarni yana bir yo'l bilan chop etaylik.

#### 4.3.8-misol. Siklning to'xtatilishi.

```
<!DOCTYPE html>
<html>
<body>
<script type = "text/javascript">
for (var i=1; true; i++) { if (i>10) break; document.write(i + " "); }
</script> </body>
</html >
```



1: 2: 3: 4: 5: 6: 7: 8: 9: 10:

#### 4.3.8-rasm

Bu yerda biz shart sifatida true ni ishlatdik, bu esa biz sikl ichida break operatoridan foydalanmaganimizda siklni adoqsiz bajarilishiga olib kelar edi.

Break operatori dasturning emas, siklning bajarilishini to'xtatadi. Sikldan keyingi navbatdagi ifoda bajarilaveradi.



### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!**

1. JavaScriptda taqqoslar amallari qanday?
2. JavaScriptda ? operatoridan foydalanishtartibini tushintiring?
3. JavaScriptda switch tanlash operatori ishlatilishini tushintiring?
4. JavaScriptda sikllar qanday ifoda qilinadi?
5. JavaScriptda for uslubi yordamida sikllarni tashkil etish qanday bajariladi?
6. JavaScriptda while va do.. while qanday tartibda ishlatiladi?
7. Qanday hollarda for, qanday hollarda while, qanday xollarda do... while ishlatgan qulay?

**O'quv modullari**

Funksiya, sinf, hususiyat, metod, global sinf, number sinfi, string sinfi, date sinfi, array sinfi, *assosiativ massiv*, math sinfi

Funksiya — dasturning ixtiyoriy qismidan murojaat qilish mumkin bo'lgan JavaScriptning qism dasturidir. Funksiya Function kalit so'zi yordamida quyidagi umumiy ko'rinishda yoziladi:

```
function <Funksiya nomi>([<Parametrlar>]) { <Funksiya tanasi> [return <Qiyamat>]; }
```

**Asosiy tushunchalar.**

Funksiya takrorlanmas nom bilan nomlanishi kerak. Funksiyani nomlashda uchun funksiya bajaradigan masala mohiyatidan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Ko'rgazmali bo'lishi uchun barcha funksiya nomlari bu kitobda "f\_" bilan boshlanadi.

Funksiya nomidan keyin aylanma qavs ichida bir yoki bir nechta parametrlar vergul bilan ajratilganholda ko'rsatilishi kerak. Parametrlar umuman ishtirok etmasligi ham mumkin. Bunday holda faqat aylanma qavs yoziladi holos.

Figurali qavs ichida JavaScript buyruqlari funksiya tanasi sifatida yoziladi. Bundan tashqari, funksiyaga murojaat joyini belgilash uchun return kalit so'zidan foydalaniladi.

Parametrsiz funksiyaga misol:

```
function f_Alert_OK() {
window.alert("Amallar muvaffaqiyatli bajarilgani haqida habar");
```

Parametrlil funksiyalarga misol:

```
function f_Alert(msg) {
window.alert(msg);
}
```

Parametrlil funksiyalarga misol, ikki son yig'indisini hisoblash:

```
function f_Sum(x, y) {
var z = x + y;
return z;
```

Return tuzilmasi nafaqat o'zgaruvchi nomini balki, ifoda qiymatini ham qaytaradi:

```
function f_Sum(x, y) {
return (x + y);
```

Dasturda funksiyaga quyidagicha murojaat qilinadi:

```
f_Alert_OK();  
f_Alert("Habar");  
Var1 = f_Sum(5, 2); // Var1 o'zgaruvchisi 7 qiymatini o'zlashtiradi  
return <qiymat> dan keying ifoda hech qachon bajarilmaydi:  
function f_Sum(x, y) {  
return (x + y);  
window.alert("Xabar"); // Bu ifoda hech qachon bajarilmaydi  
}
```

Funksiyaning qiymatidan o'tadigan o'zgaruvchining nomi funktsiyaning ichidagi o'zgarilmaydigan nomiga mos kelmasligi mumkin:

```
function f_Sum(x, y)  
{  
return (x + y);  
}
```

```
var Var3, Var1 = 5;  
var Var2 = 2;  
Var3 = f_Sum (Var1, Var2);
```

Funksiyaga murojaat biror o'zgaruvchida saqlanishi mumkin. Bunday nomlanish aylanma qavssiz bo'ladi:

```
function test() {  
window.alert("Bu funksiya test()");  
}
```

```
var x;  
x = test; // funksiyaga murojaat o'zlashtirildi  
x(); // test() funksiyasiga x o'zgaruvchisi orqali murojaat qilinmoqda
```

Bundan tashqari, funksiya umuman nomsiz bo'lishi mumkin. Misolimizda anonim funksiyaga havola o'zgaruvchida saqlanmoqda:

```
var x = function() { // anonim funksiyaga o'zgaruvchi havolasi  
window.alert("Xabar");  
};
```

```
x(); // anonim funksiyaga x o'zgaruvchisi orqali murojaat
```

Ichki o'tgan funksiyaga havola qaytarish so'zida qiymat sifatida qaytarilishi mumkin. Ichki ichki funktsiyaning chaqirish uchun, ikki marta ko'rsatiladi:

```
var x = function() { // anonim funksiyaga havola bog'lanmoqda  
return function() { // qiymat funksiyasiga havola qaytarilmoqda  
window.alert("Bu qiymat funksiya");  
};  
};
```

```
x(); // X o'zgaruvchisi orqali qiymat funksiyaga murojaat qilinmoqda
```

## HTML-hujjatda funksiyaning joylashishi.

Odatda funksiya HTML hujjatning HEAD bo'limiga joylashtiriladi yoki alohida \*.js kengatmali faylda yozilib saqlanadi. Funksiya BODY bo'limida joylashishi mumkin. (4.4.1 va 4.4.2-misolalar).

### 4.4.1-misol. Funksiyaning HEAD bo'limida joylashishi.

```
<!DOCTYPE HTML>
<html>
<head> <title>Funksiya</title>
<meta http-equiv = "Content-Type" content = "text/html; charset=utf-8">
<script type = "text/javascript">
function f_Sum(x, y){
    return (x + y);
}
</script>
</head>
<body>
<script type = "text/javascript">
var Var3, Var1 = 7, Var2 = 3;
Var3 = f_Sum(Var1, Var2);
document.write(Var3);
</script>
</body>
</html>
```

10

4.4.1-rasm

### 4.4.2-misol. Funksiyaning alohida script.js faylida joylashishiga misol

```
<!DOCTYPE HTML>
<html> <head> <title>Funksiyalar</title>
<meta http-equiv = "Content-Type" content="text/html; charset=utf-8">
<script type = "text/javascript" src = "script.js"></script>
</head>
<body>
<script type = "text/javascript">
var Var3, Var1 = 7, Var2 = 3;
Var3 = f_Sum(Var1, Var2);
```

```
document.write(Var3);
</script>
</body>
</html>
```

### script.js faylining tarkibi

```
function f_Sum(x, y) {
return (x + y);
}
```



4.4.2-rasm

script.js faylini Bloknout yordamida yaratish mumkin.

### Rekursia. Faktorialni hisoblash.

**Rekursia** – bu funksiyaning o'zida-o'ziga murojat qila olish imkoniyatidir. Bir tomondan bu qulay, boshqa tomondan agar chiqish sharti chorasi ko'rilmagan bo'lsa siklni davomiyligi cheksiz bo'lib qoladi. Misolimizda faktorialni hisoblash dasturi keltirilgan (4.5.3-misol).

### 4.4.3-misol. Faktorialni hisoblash

```
<!DOCTYPE HTML>
<html>
<head> <title> Faktorialni hisoblash </title>
<meta http-equiv = "Content-Type" content = "text/html; charset = utf-8">
<script type = "text/javascript">

function f_Factorial(x) {
if (x == 0 || x == 1) return 1;
else return (x * f_Factorial(x - 1));
}

</script>
</head>
<body>
```



```
<script type = "text/javascript">
```

```
var z;
```

```
z = window.prompt("Hisoblanishi kerak bo'lgan faktorial sonini kiriting", " ");
```

```
if (z==null) {
```

```
document.write("Otmena berildi");
```

```
!;
```

```
else {
```

```
document.write(z + " sonning faktoriali = ");
```

```
document.write(f_Factorial(parseInt(z)));
```

```
!;
```

```
</script>
```

```
</body>
```

```
</html>
```



5 sonning faktoriali = 120

#### 4.4.3-rasm



### MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR!

1. *Funksiya nima?*
2. *JavaScriptda funksiya qanday e'lon qilinadi?*
3. *JavaScriptda funksiya parametrlari qanday beriladi?*
4. *JavaScriptda rekursiv funksiyadan foydalanish qanday bajariladi?*

#### 4.5-§. JavaScriptda OYD asoslari (standart, brauzer va dasturchi tomonidan yaratilgan ob`ektlar).



##### O`quv modullari

*sinf, hususiyat, metod, global sinf, number sinfi, string sinfi, date sinfi, array sinfi, assosiativ massiv, math sinfi*

##### JavaScriptda sinflar. Asosiy tushunchalar.

